O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMLI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA OLIY MATEMATIKA KURSIDAN MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI

(O'QUV QO'LLANMA)

TOSHKENT 2006

Техниka oliy o'quv yurtlarida oliy matematiкa кursidan mustaqil shug'ullanish uchun topshiriqlar to'plami: Oquv qollanma. Sodiqov M., Shamsiyev E.A.-Toshkent, ToshDTU, 2006,-202 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy texnika o'quv yurtlarida o'qitiladigan «Oliy matematika» kursi dasturining asosiy qismini o'z ichiga oladi. Har bir bo'lim boshida zarur nazariy ma'lumot batafsil yechimi bilan namunaviy misol va masalalar keltirilgan, so'ng mustaqil yechish uchun 20 ta variant beriladi.

«Oliy matematika» kafedrasi

Abu Rayhon Beruniy nomli Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-uslubiy kengashi qarori asosida chop etildi.

Taqrizchilar:

1. O'zMU dotsenti f.-m.f.n. Narmanov A.Y.
2. ToshDTU dotsenti Narziyev A.

“OLIY MATEMATIKA” FANINI O’RGANISH BO’YICHA USLUBIY KO’RSATMALAR

Oliy matematika fanini o’rganishga o’tishdan avval talabalarga /3/ kitobning kirish qismini o’qish tavsiya qilinadi, u yerda matematika fanining predmeti va ahamiyati qisqacha bayon etilgan.

1- MAVZU. CHIZIQLI ALGEBRA VA ANALITIK GEOMETRIYA ELEMENTLARI

1. Ikkinchi va uchinchi tartibli determinantlar, ularning asosiy xossalari /I, I bob, 3-, 8- bo’limlar/.
2. n- chi tartibli determinantlar. Determinantlarni hisoblash /I, V bob, 2-bo’lim/.
3. Koordinatalar sistemasi. R^2 va R^3 fazolar. Vektorlar, ular ustida amallar. /I, I bob, 1,2-bo’limlar.
4. Vektorlarning skalyar ko’paytmasi va uning xossalari. Skalyar ko’paytmaning mexanik ma’nosi /I, I bob, 1, 2, 3- bo’limlar/.
5. Vektorlarning vektorli, aralash ko’paytmalari, ularning xossalari va geometrik ma’nolari /I, I bob, 3-, 3-5 bo’limlar, 7-8 bo’limlar/.
6. Matritsalar va ular ustida amallar. Matritsaning rangi. Teskari matritsa. Chiziqli almashtirishlar /I, V bob, 1, 2- bo’limlar XXI bob, 1-7- bo’limlar/.
7. Kvadrat matritsaning xos sonlari va xos vektorlari, uning xarakteristik tenglamasi. Kvadratik formalar va ularni kanonik holga keltirish /2, XXI bob, 2-4- bo’limlar/.
8. Chiziqli tenglamalar sistemasi, ularni matritsalar yordami bilan yechish. Kroneker- Kapeli teoremasi. Kramer qoidasi. Gauss usuli. /I, V bob, 3-5- bo’limlar, 2, XXI bob, 8,9,15- bo’limlar/.
9. To’g’ri chiziq va tekislikning tenglamalari, asosiy masalalar. Fazoviy chiziq tenglamalari /I, II bob, 1-3- bo’limlar/.

10. Ikkinchi tartibli sirtlar. Sirt tenglamasi, aylana, silindrik va konus sirtlar tenglamasi. /I, III bob, 4-bo'lim/.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. Ushbu

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21}$$

ikkinchi tartibli determinant deyiladi.

Quyidagini

$$\begin{vmatrix} a_{11} a_{12} a_{13} \\ a_{21} a_{22} a_{23} \\ a_{31} a_{32} a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} + a_{13}a_{21}a_{32} -$$

$$- a_{13}a_{22}a_{31} - a_{12}a_{21}a_{33} - a_{11}a_{23}a_{32}$$

uchinchi tartibli determinant deyiladi. Uchburchaklar bo'yicha quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:



a_{ij} elementlardan tashkil topgan $n!$ hadlarning yig'indisidan iborat – bo'lgan D songa n-chi tartibli determinant deyiladi:

$$D = \det(a_{ij}) = \begin{vmatrix} a_{11}a_{12}.......a_{1n} \\ a_{21}a_{22}.......a_{2n} \\ .... \\ a_{n1}a_{n2}.......a_{nn} \end{vmatrix}$$

ko'rinishda belgilanadi, a_{ij}- elementda i-yo'l, j- ustunni ko'rsatadi.

Determinantning a_{ij} elementi turgan yo'l va ustun o'chirilganda hosil bo'ladigan (n-1)- tartibli determinantga

minor deyiladi va M_{ij} bilan belgilanadi. Minorni $(-1)^{i+j}$ ga ko'paytirishdan hosil bo'lgan ifoda a_{ij} elementning algebraik to'ldiruvchisi deyiladi va $A_{ij}=(-1)^{i+j}M_{ij}$ ko'rinishda yoziladi.

2. Ikki $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarning skalyar ko'paytmasi deb $\bar{a}\,\bar{b}=\bar{a}\,\bar{b}\cos a\hat{\ }b$ songa aytiladi.

Agar $\bar{a}=\{a_x,a_y,a_z\}$ va $\bar{b}=\{b_x,b_y,b_z\}$ ko'rinishda belgilangan bo'lsa, u holda $\bar{a}\,\bar{b}=a_xb_x+a_yb_y+a_zb_z$ bo'ladi.

$\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarning vektorli ko'paytmasi deb, quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $\bar{c}$ vektorga aytiladi.

1) $\bar{c}$ vektor $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarga perpendikulyar;

2) $|\bar{c}|=|\bar{a}||\bar{b}|\sin(\bar{a}\hat{\ }\bar{b})$;

3) $\bar{a},\bar{b},\bar{c}$ vektorlarning tartiblangan uchligi o'ng uchlikni tashkil etadi.

Vektorli ko'paytma $\bar{a}\,\bar{b}=\bar{c}$ yoki $[\bar{a},\bar{b}]=\bar{c}$ ko'rinishda yoziladi.

Agar, $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlar kollinear bo'lsa, u holda $\bar{c}=|\overline{ab}|$ son $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarga yasalgan parallelogrammning yuziga teng.

Agar $\bar{a}=\{a_x,a_y,a_z\}$, $\bar{b}=\{b_x,b_y,b_z\}$ ko'rinishida berilgan bo'lsa, u holda

$$\bar{c}=\bar{a}\,\bar{b}=\begin{vmatrix}\vec{i} & \vec{j} & \vec{k}\\ a_x & a_y & a_z\\ b_x & b_y & b_z\end{vmatrix}$$

bo'ladi. $\bar{a},\bar{b},\bar{c}$ vektorlar tartiblangan uchligining aralash ko'paytmasi deb, $\bar{a}\,\bar{b}$ vektor bilan $\bar{c}$ vektorning skalyar ko'paytmasiga teng songa aytiladi va $(\bar{a}\,\bar{b})\bar{c}$ yoki $[\bar{a},\bar{b}]\bar{c}$ deb belgilanadi.

Agar $\bar{a}=\{a_x,a_y,a_z\}$, $\bar{b}=\{b_x,b_y,b_z\}$, $\bar{c}=\{c_x,c_y,c_z\}$ berilgan bo'lsa, u holda

$$[\bar{a}\,\bar{b}]\bar{c}=\begin{vmatrix} a_x a_y a_z \\ b_x b_y b_z \\ c_x c_y c_z \end{vmatrix}$$

bo'ladi.

Agar $\bar{a},\bar{b},\bar{c}$ vektorlar komplanar bo'lmasa, aralash ko'paytmaning mutlaq qiymati shu $\bar{a},\bar{b},\bar{c}$ vektorlarga yasalgan parallelepipedning hajmiga teng, ya'ni

$$V=\left|\left(\overline{a}\overline{b}\right)\overline{c}\right|$$

3. n ta ustun va m ta yo'ldan iborat bo'lgan to'g'ri burchakli jadvalda joylashgan nm ta sonlar to'plami **matritsa** deyiladi va

$$A=\begin{pmatrix} a_{11}a_{12}.....a_{1n} \\ a_{21}a_{22}.....a_{2n} \\ .... \\ a_{m1}a_{m2}.....a_{mn} \end{pmatrix}$$

ko'rinishda bo'ladi.

Agar A- matritsa uchun n=m bo'lsa, n-chi tartibli **кvadrat matritsa** deyiladi.

$$E=\begin{pmatrix}10.....00\\01.....00\\............\\00.....10\\00.....01\end{pmatrix}$$

ko'rinishdagi matritsaga birlik matritsa deyiladi.

A matritsa uchun $AB=E$ tenglikni qanoatlantiruvchi B matritsa A ga teskari matritsa deyiladi. $B=A^{-1}$ deb belgilanadi, $A^{-1}A=AA^{-1}=E$ bo'lishi kerak. Teskari matritsa A^{-1} hisoblanadi,

$$A^{-1}=\frac{1}{|A|}\begin{pmatrix}A_{11} & A_{21} & ... & A_{n1}\\ ... & ... & ... & ...\\ A_{1n} & A_{2n} & ... & A_{nn}\end{pmatrix}$$

bu yerda: $A_{ij}-A$ matritsaning a_{ij} elementining algebraik to'ldiruvchisi, $|A|$- uning determinanti.

Matritsaning rangi deb, matritsaning noldan farqli minorlarining eng yuqori tartibiga aytiladi va $r(A)$ deb yoziladi.

Agar,

$$x_1=a_{11}y_1+a_{12}y_2+....+a_{1n}y_n$$
$$x_2=a_{21}y_1+a_{22}y_2+....+a_{2n}y_n$$
$$...$$
$$x_n=a_{n1}y_1+a_{n2}y_2+....+a_{nn}y_n$$

$x_1,x_2,....,x_n$ o'zgaruvchilarni $y_1,y_2,.....,y_n$ ko'rinishda o'zgaruvchilar orqali ifodalasak, x o'zgaruvchilar y o'zgaruvchilar orqali **chiziqli almashtirilgan** deyiladi. Bu chiziqli almashtirish koeffitsientlardan tuzilgan n- tartibli

$$A = \begin{pmatrix} a_{11}a_{12}.....a_{1n} \\ a_{21}a_{22}.....a_{2n} \\ .... \\ a_{n1}a_{n2}.....a_{nn} \end{pmatrix}$$

kvadrat matritsa bilan to'la xarakterlanadi.

$(A-\lambda E)X = 0$ matritsa ko'rinishidagi tenglamani qanoatlantiruvchi noldan farqli $\bar{x} \neq 0$ bo'lgan shartda λ xos soni topish uchun $\det|A - \lambda E|$ xarakteristik tenglamani hosil qilamiz.

λ_i xos sonlarga mos x_i xos vektorning koordinatalari berilgan tenglamalar sistemasining yechimlari bo'ladi:

$$\begin{cases} (a_{11}-\lambda_i)x_1 + a_{12}x_2 + ... + a_{1n}x_n = 0 \\ a_{21}x_1 + (a_{22}-\lambda_i)x_2 + ... + a_{2n}x_n = 0 \\ .... \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + ... + (a_{nn}-\lambda_i)x_n = 0 \end{cases}$$

4. Chiziqli tenglamalar sistemasining yechimini 3 noma'lumli 3ta tenglamalar sistemasida ko'raylik. 3 noma'lumli 3ta chiziqli tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 = b_2 \\ a_{31}x_1 + a_{32}x_2 + a_{33}x_3 = b_3 \end{cases}$$

bu yerda: a_{ij}-sistema koeffitsientlari, b_i- ozod hadlar. Noma'lumlar oldidagi koeffitsientlardan tuzilgan determinant sistema determinanti va ∇ bilan belgilanadi:

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11}a_{12}a_{13} \\ a_{21}a_{22}a_{23} \\ a_{31}a_{32}a_{33} \end{vmatrix}$$

Berilgan sistemani $AX = B$ matritsa ko'rinishida yozish mumkin. Bu yerda:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11}a_{12}a_{13} \\ a_{21}a_{22}a_{23} \\ a_{31}a_{32}a_{33} \end{pmatrix}, X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}, B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{pmatrix}.$$

Kengaytirilgan matritsa deb, A matritsaga tenglamalar sistemasining ozod hadlarini qo'shib yozishdan hosil bo'lgan matritsaga aytiladi.

Kroneker – Kapelli teoremasi: Chiziqli tenglamalar sistemasining birgalikda bo'lishi uchun asosiy matritsaning rangi shu sistemaning kengaytirilgan matritsasining rangiga teng bo'lishi uchun zarur va yetarli.

Agar $\Delta \neq 0$ bo'lsa, berilgan sistemaning yagona yechimi Kramer formulalari bilan topiladi.

$x_1 = \frac{\Delta_1}{\Delta}, x_2 = \frac{\Delta_2}{\Delta}, x_3 = \frac{\Delta_3}{\Delta}$, bu yerda:

$$\Delta_1 = \begin{vmatrix} b_1a_{12}a_{13} \\ b_2a_{22}a_{23} \\ b_3a_{32}a_{33} \end{vmatrix}, \Delta_2 = \begin{vmatrix} a_{11}b_1a_{13} \\ a_{21}b_2a_{23} \\ a_{31}b_3a_{33} \end{vmatrix}, \Delta_3 = \begin{vmatrix} a_{11}a_{12}b_1 \\ a_{21}a_{22}b_2 \\ a_{31}a_{32}b_3 \end{vmatrix}$$

Gauss usulini misolda ko'ramiz.

5. To'g'ri chiziq tenglamalari: $Ax + By + C = 0$ umumiy tenglama, bu yerda: A, B, C - o'zgarmas koeffitsientlar.

$y = kx + b$ burchak koeffitsienti tenglama, bu yerda: k - to'g'ri chiziqning burchak koeffitsienti, b - to'g'ri chiziqning boshlang'ich ordinatasi.

$y - y_1 = k(x - x_1)$ -bir nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi.

$tg\varphi = \frac{k_2 - k_1}{1 + k_1k_2}$ - ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchakni topish formulasi.

$k_1 = k_2$ - to'g'ri chiziqning parallellik sharti.

$k_1 k_2 = -1$ to'g'ri chiziqning perpendikulyarlik sharti.

$\frac{y-y_1}{y_2-y_1} = \frac{x-x_1}{x_2-x_1}$, berilgan ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi.

$x\cos\alpha + y\sin\alpha - p = 0$ to'g'ri chiziqning normal tenglamasi. Bu tenglamada $\sin^2\alpha + \cos^2\alpha = 1$ o'rinli bo'ladi, chunki x va y koordinatalarining koefffitsientlari bitta burchakning sinus va kosinuslari va P perpendikulyarning kesmasi doim musbat bo'ladi:

$-p \leq 0$. Bu ikkala shart to'g'ri chiziqning normal tenglamasini xarakterlovchi belgidir. (P) tekislikning umumiy tenglamasi:

$Ax + By + Cz + D = 0$. Bu tekislikning normal vektori $\vec{n} = A\vec{i} + B\vec{j} + C\vec{k}$, $M_0(x_0, y_0, z_0)$, $M_1(x_1, y_1, z_1)$, $M_2(x_2, y_2, z_2)$ uch nuqtadan o'tgan tekislikning tenglamasi:

$$\begin{vmatrix} x-x_0 & y-y_0 & z-z_0 \\ x_1-x_0 & y_1-y_0 & z_1-z_0 \\ x_2-x_0 & y_2-y_0 & z_2-z_0 \end{vmatrix} = 0$$

Agar (P_1) tekislikning umumiy tenglamasi $A_1x + B_1y + C_1z + D_1 = 0$ $\left(\vec{n}_1 = \{A_1, B_1, C_1\}\right)$, (P_2) tekislikning umumiy tenglamasi $A_2 + B_2y + C_2z + D_2 = 0$ $\left(\vec{n}_2 = \{A_2, B_2, C_2\}\right)$, ko'rinishlarida bo'lsa, u holda (P_1) va (P_2) tekisliklarning orasidagi burchak

$$\cos\varphi = \frac{\vec{n_1}\cdot\vec{n_2}}{|\vec{n_1}|\cdot|\vec{n_2}|}$$ formula bilan topiladi.

Fazodagi to'g'ri chiziqning vektorli, parametrik va kanonik tenglamalari mos ravishda quyidagicha bo'ladi:

$\vec{r} = \vec{r_0} + \vec{S}t$ bu yerda $\vec{r}\{x,y,z\}$, $\vec{r}_0\{x_0,y_0,z_0\}$, .

$\vec{S} = \{m,n,p,\}$, t - o'zgaruvchi parametr.

$$\left.\begin{aligned} x &= x_0 + mt \\ y &= y_0 + nt \\ z &= z_0 + pt \end{aligned}\right\}, \qquad \frac{x-x_0}{m} = \frac{y-y_0}{n} = \frac{z-z_0}{p}.$$

$M_0(x_0,y_0,z_0)$, $M_1(x_1,y_1,z_1)$ nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi:

$$\frac{x-x_0}{x_1-x_0} = \frac{y-y_0}{y_1-y_0} = \frac{z-z_0}{z_1-z_0}$$ ko'rinishida bo'ladi.

6. Aylana, ellips, giperbola va parabolalar ikkinchi tartibli egri chiziqlarga kiradi. Ikkinchi tartibli chiziqning umumiy tenglamasi $Ax^2 + Bxy + Cy^2 + Dx + Ey + F = 0$. Markazi $C(a,b)$ nuqtada, radiusi R bo'lgan aylananing kanonik tenglamasi:

$(x-a)^2 + (y-b)^2 = R^2$. Ellipsning kanonik tenglamasi:

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1, \quad e = \frac{c}{a}, \quad c < a, \quad 0 < l < 1$$

ellipsning ekssentrisiteti deyiladi, $c^2 = a^2 - b^2$ bo'ladi. Giperbolaning kanonik tenglamasi: $\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$, $y = \pm\frac{b}{a}x$ giperbolaning asimptotalari, giperbolada $c > 0$ va $c^2 - a^2 = b^2$ bo'ladi. Parbolaning kanonik tenglamasi $y^2 = 2px$.

7. $$A_{11}x^2 + A_{22}y^2 + A_{33}z^2 + 2A_{12}xy + 2A_{23}yz +$$
$$+ 2A_{14}x + 2A_{14}y + 2A_{34}z + A_{44} = 0$$

tenglamani qanoatlantiruvchi nuqtalar to'plami ikkinchi tartibli sirt deyiladi. $(x-a)^2 + (y-b)^2 + (z-c)^2 = R^2$ tenglama markazi $C(a,b,c)$ nuqtada bo'lgan, R radiusli sfera tenglamasi deyiladi.

Yuqoridagi tenglamadan aylana, silindrik va konus sirtlarining tenglamalarini keltirib chiqarish mumkin.

O'z–o'zini tekshirish uchun savollar

1. Determinant deb nimaga aytiladi? Determinantlarning asosiy xossalari nimalardan iborat?
2. Determinantlarni hisoblash usulini tushuntiring. Misollar keltiring. Minor va algebraik to'ldiruvchilarni ta'riflang.
3. R^2 va R^3 fazolarni tushuntiring. Vektor deb nimaga aytiladi? Kollinear, komplanar va teng vektorlar deb qanday vektorlarga aytiladi?
4. Ikkita vektorning skalyar ko'paytmasi deb nimaga aytiladi? Ular qanday xossalarga ega?
5. Vektorlarning vektorli ko'paytmasi nima? Ularning xossalari qanday? Aralash ko'paytmani ta'riflang.
6. Matritsa deb nimaga aytiladi? Matritsalar ustida qanday amallar bajariladi?
7. Matritsaning rangi nima? Teskari matritsa qanday topiladi?
8. Kvadrat matritsaning xos son va xos vektorlari, uning xarakteristik tenglamalari qanday topiladi?
9. Kvadratik formalar va ularni kanonik holga keltirishni tushuntiring. Misol keltiring.
10. Chiziqli tenglamalar sistemasi deb nimaga aytiladi?

11. Chiziqli tenglamalar sistemasini matritsalar yordamida yechishni tushuntiring.
12. Kramer formulasi va Gauss usulini tushuntiring.
13. To'g'ri chiziq va tekislikning tenglamalarini yozing.
14. Ikkinchi tartibli egri chiziq tenglamalarini keltiring. Asosiy xossalari nimadan iborat?
15. Fazodagi to'g'ri chiziq tenglamalarini yozing. Sirt tenglamalarini yozing.

2- MAVZU. MATEMATIK TAHLILGA KIRISH

11. Matematik mantiq elementlari. To'g'ri va teskari teoremalar. Nyuton binomi. /IX, 2-bo'lim, I, II boblar; I bob, 13-§/.
12. Haqiqiy sonlar to'plami. Funksiya. Asosiy elementar funksiyalar, ularning xossalari va grafiklari /1-tom, I bob, 12-§, 6-§, 7, 8, 9-§ /, /3. I bob, 3.1-§, 3.8-§/.
13. Sonli ketma – ketliklar, ularning limiti /3, II bob, II, II bob, 1, 2, 3, 7-§ /.
14. Funksiyaning nuqtada va intervalda uzluksizligi, uzluksiz funksiyalar ustida amallar. Uzluksiz funksiyaning kesmadagi asosiy xossalari /2, II bob, 9-11-§lar/.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. Nyuton binomi deb,

$$(a+b)^n = a^n + c_n^1 a^{n-1} b + c_n^2 a^{n-2} b^2 + c_n^3 a^{n-3} b^3 + \ldots + c_n^{n-1} a b^{n-1} + b^n$$

ifodaga aytiladi. n - butun musbat son. C_n^m - koeffitsientlar binominal koeffitsientlar deyiladi.

2. Funksiyaning nuqtadagi chekli limitining ta'rifi: Agar ixtiyoriy kichik $\varepsilon > 0$ uchun shunday $\delta(\varepsilon) > 0$ topilsaki, unda $|x-a| < \delta$ bo'lganda $|f(x) - A| < \varepsilon$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, $x \to a$ da A soni $f(x)$ funksiyaning limiti deyiladi, $\lim\limits_{x\to a} f(x) = A$ yoki $x \to a$ da $f(x) \to A$ deb yoziladi.

Agar $\lim\limits_{x\to 0} f(x) = 0$ (yoki $\lim\limits_{x\to 0} F(x) = \infty$) bo'lsa. $f(x)$ funksiya (yoki $F(x)$) cheksiz kichik (cheksiz katta) deyiladi. $x \to a$ bo'lganda, bir vaqtda 0 ga yoki ∞ ga intiluvchi 2 ta $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalar uchun

$$\lim_{x\to a}\frac{f(x)}{\varphi(x)}=1$$

bo'lsa, bu funksiyalar ekvivalent deyiladi, $f(x)\approx\varphi(x)$ ko'rinishida belgilanadi.

3. 1) $y=x^n$ darajali funksiya; 2) $y=a^x$ ko'rsatkichli funksiya; 3) $y=\log_a x$ logarifmik funksiya; 4) $y=\sin x$, $y=\cos x$, $y=tgx$, $y=ctgx$ trigonometrik funksiyalar; 5) $y=\arcsin x$, $y=\arccos x$, $y=arctgx$, $y=arcctgx$ teskari trigonometrik funksiyalar asosiy elementar funksiyalarga kiradi.

Elementar funksiyaning biror nuqtadagi limiti funksiyaning shu nuqtadagi xususiy qiymatiga teng: $\lim_{x\to a} f(x)=f(a)$. $x\to a$ $a=0$ yoki $a\to\infty$ bo'lganda funksiyaning limitini hisoblashda quyidagi aniqmasliklar bo'lishi mumkin: $\infty-\infty$, $\infty\cdot 0$, $0/0$, 1^∞, 0^0, ∞^0, $\frac{\infty}{\infty}$ bu aniqmasliklarni yechishning oddiy usullari:

1) Aniqmaslikka olib keladigan ko'paytuvchilarni qisqartirish;

2) ($x\to\infty$ da ko'phadning nisbati berilsa) surat, maxrajini argumentining eng yuqori darajasiga bo'lish;

3) cheksiz kichik va cheksiz katta ekvivalentlarni qo'llash;

4) ikkita ajoyib limitlardan foydalanish:

$$\lim_{\alpha(x)\to 0}\frac{\sin\alpha(x)}{\alpha(x)}=1 \qquad \lim_{\alpha(x)\to 0}(1+\alpha(x))^{\frac{1}{\alpha(x)}}=e$$

4. Agar

1) $f(x)$ funksiya a nuqtada aniqlangan

2) $\lim_{x\to a} f(x)=f(a)$

3) funksiyaning α nuqtadagi qiymati bilan uning shu nuqtadagi limiti teng bo'lsa, u holda $f(x)$ funksiya D to'plamning nuqtasida uzluksiz deyiladi.

Agar

$$\lim_{x\to a-0} f(x) = f(a-0) \qquad \lim_{x\to a+0} f(x) = f(a+0)$$

bo'lsa, u holda $f(x)$ funksiya. α nuqtada chapdan (o'ngdan) uzluksiz deyiladi.

$f(\alpha-0) = f(\alpha+0) \neq f(\alpha)$ va $f(\alpha-0) \neq f(\alpha+0)$ bo'lib, chekli sondagi sakrashga ega bo'lsa, $f(x)$ funksiya 1- tur uzilishga, $\lim_{x\to\infty} f(x)$ mavjud bo'lmasa, yoki $\lim_{x\to\infty} f(x) = \pm\infty$ bo'lsa, $f(x)$ funksiya 2- tur uzilishga ega deyiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Matematik mantiq elementlari nima?
2. To'g'ri va teskari teoremalami tushuntiring.
3. Nyuton binomining yoyilmasini yozing.
4. Funksiyaning ta'rifini ayting. Funksiyaning aniqlanish sohasi deb nimaga aytiladi?
5. Funksiya qanday usullarda beriladi? Misollar keltiring
6. Murakkab funksiya deb nimaga aytiladi?
7. Elementar funksiya deb nimaga aytiladi?
8. Funksiyaning limiti tushunchasi bilan o'ng va chap limitlar tushunchasi orasidagi bog'lanishni ayting.
9. Birinchi ajoyib limitni ko'rsating. Ikkinchi ajoyib limitni tushuntiring.
10. Funksiyaning nuqtadagi va kesmadagi uzluksizligini ta'riflang. Funksiyaning uzilish nuqtalari deb nimaga aytiladi?

3- MAVZU. BIR O'ZGARUVCHILI FUNKSIYANING DIFFERENSIAL HISOBI

15. Hosila tushunchasiga olib keluvchi masalalar, hosilaning ta'rifi. Hosilanng fizik va geometrik ma'nolari. Funksiya differensiali
16. Hosilalar topishning asosiy qoidalari.
17. Yuqori tartibli hosila va differensiallar.
18. Roll, Lagranj va Koshi teoremalari. Teylor formulasi.
19. Lopital qoidasi.
20. Funksiyani tekshirish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. Harakatning berilgan momentdagi tezligi quyidagicha topiladi;

$$\upsilon = \lim_{\Delta t \to 0} \frac{\Delta S}{\Delta t}$$

bu yerda: $s = f(t) - (t$-vaqt) harakat tenglamasi. $y = f(x)$ funksiyaning x bo'yicha hosilasi deb, funksiya orttirmasi Δy ning argument orttirmasi Δx ga nisbatining argument orttirmasi $\Delta x \to 0$ dagi limitiga aytiladi va $y', y'_x, \frac{dy}{dx}$ ko'rinishlarda belgilanadi.

Ta'rifga asosan

$$f'(x) = \lim_{\Delta x \to 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \to 0} \frac{f(x + \Delta x) - f(x)}{\Delta x}$$

yoziladi.

2. Lopital qoidasi: 2 ta cheksiz kichik miqdor yoki cheksiz katta miqdor ($\frac{0}{0}$ yoki $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochish) nisbatining limiti ularning hosilalari nisbatlarining limitiga teng, ya'ni agar

1) $\lim\limits_{x\to a} f(x)=0(\infty)$, $\lim\limits_{x\to a} \vartheta(x)=0(\infty)$

2) $\lim\limits_{x\to a} \frac{f'(x)}{\vartheta'(x)}=A$ bo'lsa, u holda

$\lim\limits_{x\to a} \frac{f(x)}{\vartheta(x)}=\lim\limits_{x\to a} \frac{f'(x)}{\vartheta'(x)}=A$ bo'ladi.

3. Agar x_0 nuqtaning yetarli kichik atrofida $f(x)<f(x_0)$ yoki $f(x)>f(x_0)$ tengsizliklar bajarilsa, $f(x)$ funksiya x_0 nuqtada maksimum yoki minimumga ega bo'ladi. (max yoki min)

Funksiyaning maksimum va minimumlari funksiyaning ekstremumlari deyiladi. Ekstremumning zaruriy sharti agar x_0 nuqta $f(x)$ funksiyaning ekstremum nuqtasi bo'lsa, u holda $f'(x_0)=0$, yoki bu nuqtada hosila mavjud bo'lmaydi. Ekstremumning yetarli sharti: agar $f'(x)x_0$ nuqtaning chap tomonidan o'ng tomoniga o'tishda o'z ishorasini «+» dan «-» ga o'zgartirsa, shu nuqtada funksiya maksimumga ega bo'ladi, agar chapdan o'ngga o'tishda $f'(x)$ ning ishorasi «-» dan «+» ga o'zgarsa, funksiya shu nuqtada minimumga ega bo'ladi.

4. Agar (a,b)ning hamma nuqtalarida $f''(x)<0$ bo'lsa, shu intervalda tenglamasi $y=f(x)$ bo'lgan egri chiziq qavariq bo'ladi, agar (d,c) intervalda $f''(x)>0$ bo'lsa, shu intervalda tenglamasi $y=f(x)$ bo'lgan egri chiziq botiq bo'ladi. Uzluksiz egri chiziqning qavariq qismini botiq qismidan ajratgan nuqta burilish nuqtasi bo'ladi, bu nuqtada $f''(x)=0$ yoki $f''(x_0-\delta)\cdot f''(x_0+\delta)<0$ bo'ladi.

5. $y=kx+b$ to'g'ri chiziq $y=f(x)$ egri chiziqning og'ma asimptotasi deyiladi, bu yerda:

$$k=\lim_{x\to\infty}\frac{f(x)}{x} \qquad b=\lim_{x\to\infty}(f(x)-kx)$$

formulalar bilan hisoblanadi.

$k = 0$ bo'lganda, $y = b$ bo'ladi, bu gorizontal asimptota deyiladi. Agar $\lim_{x \to a-0} f(x) = \infty$ yoki $\lim_{x \to a+0} f(x) = \infty$ bo'lsa, $x = a$ to'g'ri chiziq vertikal asimptota deyiladi.

6. Funksiyalarni tekshirishning umumiy plani va grafiklar yasash.

1) Funksiyaning aniqlanish sohasi topiladi;
2) Funksiyaning uzilish nuqtalari topiladi, juft-toq, davriyligi aniqlanadi;
3) Funksiyaning o'sish va kamayish intervallari topiladi;
4) Kritik nuqtalar va ekstremum qiymatlar topiladi;
5) Qavariqlar, botiqlik sohalari, burilish nuqtasi topiladi;
6) Asimptotalar topiladi ;
7) Topilgan natijalardan foydalanib, funksiyaning grafigi chiziladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Hosila tushunchasiga olib keluvchi qanday masalalarni bilasiz? Hosila deb nimaga aytiladi? Uning geometrik va fizik ma'nolarini tushuntiring
2. Yig'indining, ko'paytmaning hosilalarini topish formulasini yozing, misollar keltiring.
3. Murakkab funksiyani differensiallash formulasini yozing. Misollar keltiring.
4. Trigonometrik va logarifmik funksiyalarning hosilalari qanday topiladi?
5. Yuqori tartibli hosila va differensiallarni ta'riflang.
6. Ikkinchi tartibli hosilaning mexanik ma'nosi nimadan iborat?
7. Roll, Lagranj va Koshi teoremalarini ta'riflang.
8. Funksiya differensiali tushunchasini keltiring.
9. Qanday nuqtalarda funksiyaning differensiali orttirmasiga aynan teng bo'ladi? Funksiya differensialining invariantlik formasi nimadan iborat?

10. Teylor formulasini yozing. Lopital qoidasini tushuntiring.
11. Funksiya ekstremumining zaruriy va yetarli shartlarini ta'riflang.
12. Funksiyaning burilish nuqtasi qanday topiladi?
13. Asimptota deb nimaga aytiladi?

4- MAVZU. KOMPLEKS SONLAR

21. Kompleks sonlarni tekislikda tasvirlash, uning moduli va argumenti, kompleks sonning trigonometrik shakli. Eyler formulasi. Kompleks sonning ko'rsatkichli shakli.
22. Ko'phadlar. Bezu teoremasi. Algebraning asosiy teoremasi.
23. Interpolyatsiya va approksimatsiya haqida tushuncha.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. $z = x + yi = \rho(\cos\varphi + i\sin\varphi)$ ko'rinishdagi ifoda kompleks son deyiladi (mos ravishda algebraik va trigonometrik ko'rinishlari), bu yerda: $i^2 = -1$, $x = R \in z - z$ kompleks sonning haqiqiy qismi mavhum qismi, $y = Lmz$ - mavhum qismi, ρ va $\varphi - z$ sonning moduli va argumenti: $\rho = |z|, \varphi = \arg z(tg\varphi = \frac{y}{x})$ kompleks sonlar kompleks tekislikdagi nuqtalar bilan tasvirlanadi.

$z = \rho(\cos\varphi + i\sin\varphi)(z \neq 0)$ kompleks sondan n- darajali ildiz chiqarish:

$$\sqrt[n]{z} = \sqrt[n]{\rho}(\cos\frac{\varphi + 2k\pi}{n} + i\sin\frac{\varphi + 2k\pi}{n})$$
$$k = 0, 1, 2, ..., n-1$$

Eyler formulasi: $e^{i\varphi} = \cos\varphi + i\sin\varphi$ bu formulaga ko'ra kompleks sonning ko'rsatkichli shakli $z = \rho e^{i\varphi}$ bo'ladi.

2. $f(x) = A_0x^n + A_1x^{n-1} + ... + A_n$ (n- butun musbat son) ko'rinishdagi ifoda ko'phad deyiladi.

n-son ko'phadning darajasi deyiladi. $A_0, A_1, \ldots\ldots, A_n$. koeffitsientlar - haqiqiy va kompleks sonlar: o'zgaruvchi x haqiqiy va kompleks qiymatlar olishi mumkin. O'zgaruvchi x ning ko'phadni 0 ga aylantiradigan qiymati ko'phadning ildizi deyiladi.

Bezu teoremasi: $f(x)$ ko'phadni $x-a$ ayirmaga bo'lganda $f(a)$ ga teng qoldiq hosil bo'ladi.

3. Biror hodisani o'rganishda x va y miqdorlar orasida shu hodisaning miqdor tomonini ta'riflovchi funksional bog'lanish borligi aniqlangan bo'lsin; bunda $y = f(x)$ funksiya noma'lum bo'lib, lekin tajriba asosida argumentning $[a,b]$ kesmadagi $x_0, x_1, \ldots\ldots, x_n$ qiymatlarida funksiyaning $y_0, y_1, \ldots\ldots, y_n$ qiymatlari aniqlangan bo'lsin.

Masala quyidagicha qo'yiladi: $[a,b]$ kesmada noma'lum $y = f(x)$ funksiyaning $n+1$ ta har xil $x_0, x_1, \ldots\ldots, x_n$ nuqtalardagi $y = f(x), y_1 = f(x_1), \ldots., y_n = f(x_n)$ qiymatlari berilgan, funksiyani taqribiy ifodalovchi, darajasi n dan katta bo'lmagan $P(x)$ ko'phadni topish talab etiladi.

Bunday ko'phad sifatida $x_0, x_1, \ldots\ldots, x_n$ nuqtalaridagi qiymatlari $f(x)$ funksiyaning $f(x), f(x_1), \ldots., f(x_n)$ qiymatlari bilan mos ravishda teng bo'lgan $P(x)$ ko'phad olinadi:

Topilgan $P(x)$ funksiya interpolyatsion formula deyilib, $x_0, x_1, \ldots\ldots, x_n$ lar interpolyatsiya tugunlari deyiladi. Tugunlar orasidagi masofa $h = x_i - x_{i-1}$ interpolyatsiya qadami deyiladi.



3. Approksimatsiya tushunchasi bitta matematik obyektni ma'no jihatidan berilgan obyektga yaqin bo'lgan boshqasi bilan almashtirishdan iborat.

Berilgan masalani oddiyroq yoki xossalari avvaldan ma'lum bo'lgan, hisoblash uchun qulay obyektlarni o'rganishga keltirib, ularning sonli xarakteristikalarini va sifatining xususiyatlarini tekshiradi.

Matematikaning ba'zi bo'limlari approksimatsiya masalasiga bag'ishlangan. Masalan, differensial tenglamalar ayirmali tenglamalarga, sonlar nazariyasida irratsional sonlarni ratsional sonlarga keltirilib o'rganiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Kompleks sonlarning ta'rifini bering. Kompleks sonlar ustida qanday amallar bajariladi?
2. Kompleks sonlarning trigonometrik shakli, ko'rsatkichli shaklini yozing.
3. Kompleks sondan ildiz chiqarishni ko'rsating.
4. Eyler formulasi deb qanday formulaga aytiladi?

5. Bezu teoremasini ta'riflang.
6. Algebraning asosiy teoremasini ta'riflang.
7. Lagranj interpolyatsion formulasini yozing. Berilgan funksiyani interpolyatsiyalash jarayonining ma'nosi nimadan iborat?
8. Funksiyani interpolyatsiyalash masalasi qanday geometrik ma'noga ega?
9. Approksimatsiya nima?

5- MAVZU. ANIQMAS INTEGRALLAR

24. Boshlang'ich funksiya. Aniqmas integral va uning xossalari /2, X bob, 1-3-§lar/
25. Integrallash usullari. Aniqmas integral jadvallaridan foydalanish/2, X bob, 4-15-§lar/

6- MAVZU. ANIQ INTEGRALLAR

26. Aniq integral tushunchasiga olib keluvchi masalalar. Aniq integral va uning xossalari. O'rta qiymat haqida teorema /2, XI bob, 1-3-§lar/
27. Nyuton - Leybnis formulasi /2, XI bob, 4-6-§lar/
28. Aniq integralni taqribiy hisoblashda to'g'ri to'rtburchak, trapetsiya va Simpson formulalari. Xosmas integrallar, ularning asosiy xossalari /2, XI bob, 7-8-§lar/

Asosiy nazariy ma'lumotlar

I. Agar $F'(x) = f(x)$ bo'lsa, $\int f(x)dx = F(x) + C$ ko'rinishdagi ifodaga $f(x)$ funksiyadan olingan aniqmas integral deyiladi. $F(x)$ funksiya berilgan $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi deyiladi. Integrallashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Agar $\int f(x)dx = F(x) + C$ bo'lsa, u holda $\int f(ax)dx = \frac{1}{a}F(ax) + C; \int f(x+b)dx = F(x+b) + C$ bo'ladi, bu yerda: a va b ixtiyoriy o'zgarmaslar.
2. Differensial ostiga kirish:

$$\int f(\varphi(x))\varphi'(x)dx = \int f(\varphi(x))d(\varphi(x)) = \int f(u)du,$$ chunki $\varphi'(x)dx = d\varphi(x), [u = \varphi(x)]$

3. Bo'laklab integrallash formulasi $\int udv = uv - \int vdu$

Odatda dv ifoda integrallashda qiyinchilik tug'dirmaydigan qilib tanlab olinadi. Bo'laklab integrallanadigan funksiyalar sinfiga, xususan

$$P(x)\cdot e^{dx}, P(x)\sin ax, P(x)\cos ax, P(x)\ln x,$$

$$P(x)\arcsin x, P(x)arctgx$$

kiradi, bu yerda: $P(x)$- ko'phad.

4. Ratsional kasrlarni integrallash.

$$R(x) = \frac{P_k(x)}{Q_k(x)}$$

Ko'phadlar nisbati berilgan bo'lsa, $R(x)$ elementar kasrlarga ajratiladi.

$$\frac{A}{(x-a)^e}, \qquad \frac{MX+N}{(x^2+px+q)^m}$$

Ko'rinishda bo'lib, bu yerda: e va m - butun musbat sonlar.

5. O'zgaruvchilarni almashtirish usuli bilan integrallash (o'rniga qo'yish usuli), bu usul integrallashning eng samarali usullaridan hisoblanadi. Bu usulning ma'nosi x o'zgaruvchidan t o'zgaruvchiga o'tish: $x = \varphi(t)$ ko'p uchraydigan funksiyalarga standart almashtirishlar ko'rsatish mumkin.

$$\int R(x, \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}})dx, \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}} = t;$$

$$\int R(x, \sqrt{a^2 - x^2})dx, x = a\sin t;$$

$$\int R(x, \sqrt{a^2 + x^2})dx, x = atgt;$$

bu yerda: R - ratsional funksiyaning ramzi.

1. Agar $F'(x) = f(x)$ va $F(x)$ $[a,b]$ kesmada uzluksiz bo'lsa, aniq integralni hisoblashda Nyuton-Leybnis

formulasi $\int_a^b f(x)dx = F(x)\Big|_a^b = F(b) - F(a)$ ko'rinishda bo'ladi.

Aniq integral son jihatdan $x = a, x = b, y = 0$ to'g'ri chiziqlar va $y = f(x)$ funksiya grafigining bir qismi bilan chegaralangan trapetsiyaning yuziga teng, agar $f(x) \geq 0$ bo'lsa "+" ishora bilan $f(x) \leq 0$ bo'lsa "–" ishora bilan olinadi.

3. Agar $\lim\limits_{b \to +\infty} \int_a^b f(x)dx$ chekli limit mavjud bo'lsa, bu limit $f(x)$ funksiyaning $[a, \infty]$ dagi xosmas integrali deyiladi va

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx = \lim_{b \to +\infty} \int_a^b f(x)dx$$ ko'rinishda yoziladi.

$f(x)$ funksiya $a \leq x < c$ oraliqda aniqlangan va uzluksiz bo'lsin, $x = c$ bo'lganda esa yoki aniqlanmagan yoki uzilishga ega bo'lsin. Bunday holda $\int_a^c f(x)dx$ integralni integral yig'indining limiti deb qarash mumkin bo'lmaydi, chunki $f(x)$ funksiya $[a, c]$ kesmada uzlukli va shuning uchun bu limit mavjud bo'lmasligi ham mumkin.

c nuqtada uzilishga ega bo'lgan $f(x)$ funksiyaning $\int_a^c f(x)dx$ integrali:

$$\int_a^c f(x)dx = \lim_{b \to c-0} \int_a^b f(x)dx$$ ko'rinishda yoziladi.

Agar o'ng tomonda turgan limit mavjud bo'lsa, u holda integral yaqinlashuvchi xosmas integral deyiladi, aks holda integral uzoqlashuvchi deyiladi.

Agar $f(x)$ funksiya $[a,c]$ ning chap uchida uzlukli bo'lsa, u holda ta'rifga ko'ra

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx = \lim_{b\to+\infty} \int_a^b f(x)dx .$$

Agar $f(x)$ funksiya $[a,c]$ kesma ichidagi biror $x = x_0$ nuqtada uzlukli bo'lsa, u holda

$$\int_a^c f(x)dx = \int_a^{x_0} f(x)dx + \int_{x_0}^c f(x)dx$$

yoziladi, bunda o'ng tomondagi xosms integrallarning ikkalasi ham mavjud bo'lishi shart.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Boshlang'ich funksiya deb nimaga aytiladi?
2. Aniqmas integralni tushuntiring, uning asosiy xossalari nimalardan iborat?
3. $\int(2x-1)^2 dx$ integralni ikki xil usul bilan :

a) murakkab argumentli ko'rsatkichli funksiyadan olingan integral ko'rinishda;

b) qavslarni ochib, oddiy integrallash ko'rinishida yeching.

4. Ratsional kasrlarni oddiy kasrlarga yoyib, integrallashni ko'rsating.
5. Irratsional kasrlar qanday integrallanadi?
6. Aniq integralni ta'riflang. Aniq integral tushunchasiga olib keluvchi qanday masalalarni bilasiz?
7. $f(x) \neq 0$ bo'lganda $\int_a^b f(x)dx = 0$ integralning geometrik ma'nosini tushuntiring.

8. $\int_{-a}^{a} f(x^2)dx = 2\int_{0}^{a} f(x^2)dx$ ekanini ko'rsating.

9. Aniq integralning asosiy xossalari nimalardan iborat? O'rta qiymat haqidagi teoremani tushuntiring.

10. Nyuton–Leybnis formulasini yozing va misollar keltiring.

11. Aniq integralni taqribiy hisoblash formulalarini yozing va tushuntiring. Bir-biridan farqi nimada?

12. Xosmas integral deb qanday integralga aytiladi? Uning asosiy xossalari nimalardan iborat?

7- MAVZU. KO'P O'ZGARUVCHI FUNKSIYALAR

29. Ko'p o'zgaruvchi funksiyalar. Ko'p o'zgaruvchi funksiyalarning uzluksizligi /2, VIII bob, 1-4-§lar/
30. Xususiy hosilalar. To'liq differensial. /2, VIII bob, 5-10-§lar/
31. Yuqori tartibli hosilalar va to'liq differensiallar. Teylor formulasi.
32. Ko'p o'zgaruvchili funksiyalarning ekstremumi: ekstremumning zaruriy va yetarli shartlari. /2, VIII bob, 17-§lar/
33. Oshkormas funksiyalar, mavjudlik teoremasi. Oshkormas funksiyalarni differensiallash /2, VIII bob, 11-§lar/
34. Shartli ekstremumlar. Lagranj ko'paytuvchilari usuli, optimal yechimlarni topishda uning qo'llanilishi /2, VIII bob, 18-§lar/

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. $M(x,y)$ nuqta funksiyaning aniqlanish sohasidan chiqmagan holda, $M_0(x_0,y_0)$ nuqta ixtiyoriy usulda intilganda $\lim\limits_{M\to M_0} f(M)=f(M_0)$ yoki $\lim\limits_{\substack{x\to x_0\\ y\to y_0}} f(x,y)=f(x_0,y_0)$ tenglik o'rinli bo'lsa, $z=f(x,y)$ funksiya $M_0(x_0,y_0)$ nuqtada uzluksiz deyiladi.

2. $\dfrac{\partial z}{\partial x}=\lim\limits_{\Delta x\to 0}\dfrac{\Delta_x z}{\Delta x}=\lim\limits_{\Delta x\to 0}\dfrac{f(x+\Delta x,y)-f(x,y)}{\Delta x}, z=f(x,y)$ funksiyaning x bo'yicha xususiy hosilasi deyiladi va $z'_x, f'_x(x,y), \dfrac{\partial f}{\partial y}$ ko'rinishda belgilanadi. Agar $z=f(x,y)$ funksiya uzluksiz xususiy hosilalarga ega bo'lsa, bu funksiya

(x,y) da nuqta differensiallanuvchi va uning to'liq differensiali:

$$dz = \frac{\partial f}{\partial x}dx + \frac{\partial f}{\partial y}dy \text{ bo'ladi.}$$

3. $\frac{\partial^n z}{\partial x^p \partial y^{n-p}}$ ifoda n-tartibli xususiy hosilaning umumiy formulasi, bu yerda $f(x,y)=z$ funksiyadan x bo'yicha p marta hosila olingandan keyin, y bo'yicha $(n-p)$ marta hosila olinadi.

Agar x ning uzluksiz funksiyasi $y: F(x,y)=0$ oshkormas ko'rinishda berilgan bo'lsa, uning hosilasi:

$y'_x = -\frac{\partial F/\partial x}{\partial F/\partial y}$ bo'ladi, bu yerda, $\frac{\partial F}{\partial y} \neq 0$ bo'lishi kerak.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Ikki o'zgaruvchining funksiyasi va uning aniqlanish sohasi deb nimaga aytiladi?
2. Murakkab funksiyaning hosilasini yozing.
3. Xususiy hosila qanday topiladi?
4. $z=f(u,v)$ murakkab funksiya $(u=u(x), v=v(x)$ bo'lganda) dan to'la hosilani hisoblash formulasini yozing.
5. Berilgan $F(x,y)=0$ oshkormas funksiyadan olingan hosila formulasini chiqaring.
6. Yuqori tartibli xususiy hosilani ta'riflang. Ikki o'zgaruvchili funksiyaning aralash xususiy hosilalarining tengligi to'g'risidagi teoremani ta'riflang.
7. Lagranj ko'paytiruvchilari usulini tushuntiring. Bu usul optimal yechimlarni topishda qanday qo'llanadi?

8- MAVZU. ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALAR.

35. Differensial tenglamaga olib keluvchi masalalar. Oddiy differensial tenglamalar. Koshi masalasi. Birinchi tartibli differensial tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teorema /2, XIII bob, 1-3-§lar, 3-§ning I bo'limi/

36. Birinchi tartibli differensial tenglamalarni yechish. /2, XIII bob, 3-§ning 2-5 bo'limlari/.

37. Yuqori tartibli differensial tenglamalar. /2, XIII bob, 16-18-§lar/.

38. Chiziqli differensial tenglamalar. Bir jinsli tenglamalar. /2, XIII bob, 20,21-§lar/. 42. O'zgarmas koeffitsientli chiziqli differensial tenglamalar, o'ng tomoni maxsus ko'rinishda berilgan differensial tenglamalar. /2, XIII bob, 22-25-§lar/.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. Erkli o'zgaruvchi x, noma'lum funksiya y va uning hosilalari $y', y'', ..., y^{(n)}$ orasidagi bog'lanishga differensial tenglama deyiladi. Ramziy ko'rinishda $F(y', y'', ..., y^{(n)}) = 0$ deb yoziladi. Birinchi tartibli differensial tenglama $F(y, y, y') = 0$ ko'rinishda bo'ladi. Bu tenglamaning $x = x_0$ bo'lganda $y = y_0$ (yoki $y / x = x_0 = y_0$) boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi xususiy yechimini topish masalasi Koshi masalasi deyiladi.

Berilgan differensial tenglamaning xoy tekislikda chizilgan har qanday $y = \varphi(x)$ yechimining grafigi bu tenglamaning integral egri chizig'i deyiladi.

2. $y' + P(x)y = Q(x)$ ko'rinishdagi tenglama birinchi tartibli chiziqli tenglama deyiladi. Agar $Q(x) = 0$ bo'lsa, bir jinsli, agar $Q(x) \neq 0$ bo'lsa, bir jinslimas tenglama deyiladi.

Bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

o'zagaruvchilarni ajratish yo'li bilan topiladi. Bir jinslimas tenglamaning umumiy yechimi esa bir jinsli tenglamaning umumiy yechimidan ixtiyoriy o'zgarmas c ni variatsiyalash yordamida topiladi yoki $y=uv$, (uv-izlanayotgan funksiyalar) ko'rinishida almashtirish yordamida integrallash mumkin.

3. $y^{(n)}=f(x,y,y',...,y^{(n-1)})$ – n-tartibli tenglama bo'lib, uning $y\big|_{x=x_0}=y_0; y'\big|_{x=x_0}=y'_0;....,y^{(n-1)}\big|_{x=x_0}=y_0^{(n-1)}$ boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi $y=\vartheta(x)$ yechimini topish masalasi Koshi masalasi deyiladi. n – tartibli differensial tenglamaning umumiy yechimi $y=\vartheta(x,C_1,C_2,...,C_n)$ ko'rinishida bo'ladi.

$$y^{(n)}+a_1y^{(n-1)}+a_2y^{(n-2)}+....+a_ny=f(x)$$

n – chi tartibli bir jinslimas chiziqli tenglama berilgan bo'lsa, bu tenglamaga mos bir jinsli $y^{(n)}+a_1y^{(n-1)}+....+a_ny=0$ tenglamaning umumiy yechimi $\overline{y}=c_1y_1+c_2y_2+....+c_ny_n$ bo'ladi. U holda bir jinslimas tenglamaning yechimi $y=\overline{y}+y^*$ ko'rinishda olinadi, bu yerda: y^* – bir jinslimas tenglamaning xususiy yechimi.

4. O'zgarmas koeffitsientli ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglama $a_0y''+a_1y'+a_2y=f(x)$ ko'rinishda bo'ladi, bu yerda: a_0,a_1,a_2 – o'zgarmas sonlar, $a_0\neq 0$. Agar $f(x)=0$ bo'lsa, tenglama bir jinsli, $f(x)\neq 0$ bo'lsa, bir jinslimas deyiladi.

5. $a_0k^2+a_1k+a_2=0$ kvadrat tenglama $a_0y''+a_1y''+a_2y=0$ differensial tenglamaning xarakteristik tenglamasi deyiladi. $D=a_1^2-4a_0\cdot a_2$ - kvadrat tenglamaning diskriminanti, D ning ishorasiga qarab, umumiy yechimlar topiladi.

6. Bir jinslimas tenglamaning umumiy yechimi $y=\bar{y}+y^*$ ko'rinishda olinadi, bu yerda; $\bar{y}$- bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi, y^*- bir jinslimas tenglamaning xususiy yechimi, $f(x)$- o'ng tomon, har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1) Agar $f(x)=b_0x^2+b_1x+b_2$ ko'rinishda bo'lsa, xususiy yechim:

a) $y^*=Ax^2+Bx+C$ (agar 0 xarakteristik tenglamaning yechimi bo'lmasa)

b) $y^*=Ax^3+Bx^2+Cx$ (agar 0 xarakteristik tenglamaning oddiy yechimi bo'lsa);

2) Agar $f(x)=be^{\alpha x}$ bo'lsa, y^* lar tanlab olinadi.

3) Agar $f(x)=e^{\alpha x}(M\cos bx+N\sin bx)$ bo'lsa. y^* yechimlar tanlab olinadi. Bu xususiy yechimlarda A,B,C o'zgarmas aniqmas koeffitsientlar usuli bilan topiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Birinchi tartibli differensial tenglama va uning umumiy, xususiy yechimlari tushunchasini keltiring. Birinchi tartibli differensial tenglama uchun Koshi masalasini ta'riflang va uning geometrik ma'nosini tushuntiring.
2. Birinchi tartibli differensial tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi to'g'risidagi teoremani tushuntiring.
3. O'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglama deb nimaga aytiladi? Uning umumiy yechimini topish usulini ko'rsating. Misol keltiring.
4. Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglama deb qanday tenglamaga aytiladi?
5. Qanday tenglamaga Bernulli tenglamasi deyiladi? Uning umumiy yechimi qanday topiladi?

6. To'liq differensialli tenglamani tushuntiring, umumiy yechimini topishni ko'rsating.
7. Yuqori tartibli differensial tenglama deb qanday tenglamaga aytiladi? Chiziqli, bir jinsli, bir jinslimas differensial tenglamalarni tushuntiring.
8. O'zgarmas koeffitsientli bir jinslimas differensial tenglamaning o'ng tomoniga qarab xususiy yechimlari qanday topiladi?

9- MAVZU. ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASI

39. Differensial tenglamalar normal sistemasi. Avtonom sistema, differensial tenglamalarning normal sistemasi uchun Koshi masalasi. Yechimning mavjudligi va yagonaligi haqida teorema./2, XIII bob, 29-§/
40. Differensial tenglamalar normal sistemasini yechish uchun noma'lumlarni yo'qotish usuli./2, XIII bob, 34-§/
41. Chiziqli differensial tenglamalar sistemasi. O'zgarmas koeffitsientli chiziqli differensial tenglamalar sistemasi. /2, XIII bob, 30-§/

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1)

$$\begin{cases} \frac{dy_1}{dx} = f_1(x, y_1, y_2, ..., y_n) \\ \frac{dy_2}{dx} = f_2(x, y_1, y_2, ..., y_n) \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ \frac{dy_n}{dx} = f_n(x, y_1, y_2, ..., y_n) \end{cases}$$

ko'rinishdagi sistemaga differensial tenglamalar normal sistemasi deyiladi, bu erda, $y_1, y_2, ..., y_n$ - noma'lum funksiyalar.

O'zgarmas koeffitsientli n-chiziqli differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{cases} \dfrac{dx_1}{dt} = a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \ldots + a_{1n}x_n \\ \dfrac{dx_2}{dt} = a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \ldots + a_{2n}x_n \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ \dfrac{dx_n}{dt} = a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + \ldots + a_{nn}x_n \end{cases}$$

bu yerda, $a_{ij} - const$.

Bu sistemani matritsa ko'rinishda

$$\frac{dX}{dt} = AX$$

deb yozish mumkin, bu yerda,

$$A = \begin{pmatrix} a_{11}a_{12}\ldots a_{1n} \\ a_{21}a_{22}\ldots a_{2n} \\ \ldots\ldots\ldots\ldots \\ a_{n1}a_{n2}\ldots a_{nn} \end{pmatrix}, X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \ldots \\ x_n \end{pmatrix}, \frac{\partial X}{\partial t} = \begin{pmatrix} \dfrac{\partial x_2}{\partial t} \\ \ldots \\ \ldots \\ \dfrac{\partial x_n}{\partial t} \end{pmatrix}$$

Sistemaning yechimini $x_1 = P_1e^{\lambda t}; x_2 = P_2e^{\lambda t}, \ldots, x_n = P_ne^{\lambda t}$ ko'rinishda qidiramiz. $x_1, x_2, \ldots, x_n$ qiymatlarni tenglamalar sistemasiga qo'yib, $P_1, P_2, \ldots, P_n$ larda nisbatan chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} (a_{11} - \lambda)P_1 + a_{12}P_2 + \ldots + a_{1n}P_n = 0 \\ a_{21}P_1 + (a_{22} - \lambda)P_2 + \ldots + a_{2n}P_n = 0 \\ a_{n1}P_1 + a_{n2}P_2 + \ldots + (a_{nn} - \lambda)P_n = 0 \end{cases}$$

Bu sistema noldan farqli yechimlarga ega bo'lishi uchun uning determinanti nolga teng bo'lishi kerak:

$$\begin{vmatrix} a_{11}-\lambda & a_{12} & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22}-\lambda & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & a_{nn}-\lambda \end{vmatrix} = 0$$

Bu esa λ ga nisbatan $n-$chi darajali tenglama, uning ildizlari haqiqiy, har xil, kompleks, karrali bo'lishi mumkin.

Xarakteristik tenglamaning ildizlari haqiqiy va har xil bo'lgan hol. $k_1, k_2, ..., k_n$ bilan xarakteristik tenglamaning ildizlari belgilanadi. Har bir k_i ildiz uchun sistemani yozib, $\alpha_1^{(i)}, \alpha_2^{(i)}, ..., \alpha_n^{(i)}$ koeffitsientlar aniqlanadi.

k_i ildiz uchun sistemaning yechimi

$$x_1^{(1)} = \alpha_1^{(1)} e^{k_1 t}, x_2^{(1)} = \alpha_2^{(1)} e^{k_1 t}, ..., x_n^{(1)} = \alpha_n^{(1)} e^{k_1 t},$$

k_2 ildiz uchun

$$x_1^{(2)} = \alpha_1^{(2)} e^{k_1 t}, x_2^{(2)} = \alpha_2^{(2)} e^{k_1 t}, ..., x_n^{(2)} = \alpha_n^{(2)} e^{k_1 t},$$

....

k_n ildiz uchun

$$x_1^{(n)} = \alpha_1^{(n)} e^{k_1 t}, x_2^{(n)} = \alpha_2^{(n)} e^{k_1 t}, ..., x_n^{(n)} = \alpha_n^{(n)} e^{k_1 t}.$$

Bevosita tenglamaga qo'yib:

$$\left.\begin{array}{l} x_1 = c_1 \alpha_1^{(1)} e^{k_1 t} + c_2 \alpha_1^{(2)} e^{k_2 t} + ... + c_n \alpha_1^{(n)} e^{k_n t} \\ x_2 = c_1 \alpha_2^{(1)} e^{k_1 t} + c_2 \alpha_2^{(2)} e^{k_2 t} + ... + c_n \alpha_2^{(n)} e^{k_n t} \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ x_n = c_1 \alpha_n^{(1)} e^{k_1 t} + c_2 \alpha_n^{(2)} e^{k_2 t} + ... + c_n \alpha_n^{(n)} e^{k_n t} \end{array}\right\}$$

sistema hosil qilinadi. Bunda $C_1, C_2, ..., C_n$ ixtiyoriy o'zgarmas miqdorlar bo'lib, bu miqdorlarning shunday qiymatlari topiladiki, bu qiymatlar yechimning berilgan boshlang'ich shartlarini qanoatlantiradi.

Bu berilgan tenglamalar sistemasining umumiy yechimi bo'ladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Birinchi tartibli differensial tenglamalar normal sistemasining umumiy yechimini topish usullarini tushuntiring. Misol keltiring.
2. O'zgarmas koeffitsientli chiziqli differensial tenglamalar sistemasini matritsalar ko'rinishida yozing va yechimlarini topishni misolda tushuntiring.
3. O'zgarmas koeffitsientli chiziqli bir jinsli tenglamalar sistemasini xarakteristik tenglamaning oddiy ildizlarini topish usuli bilan yeching.

10- MAVZU. SONLI VA FUNKSIONAL QATORLAR

42. Sonli qatorlar, qatorlarning yaqinlashishi va uzoqlashishi. Yaqinlashishning zaruriy va yetarli sharti, qator yaqinlashishining asosiy alomatlari. / II-XVI bob, 1-8§lar/
43. Funksional qatorlar Yaqinlashish sohasi, uni aniqlash usullari / II XVI bob, 9-12§lar/
44. Darajali qatorlar. Funksiyalarni darajali qatorga yoyish. Taqribiy hisoblarda darajali qatorni qo'llanilishi. / II XVI bob, 13-28§lar/
45. Trigonometrik qator. Fure qatorlari. Fure funksiyalarini Fure qatoriga yoyish / II XVII bob, 1-11§lar/
46. Kompleks hadli qatorlar. Kompleks shakldagi Fure qatorlar. Spektr. Fure integrali. Fure almashtirishlari / II-XVII bob, 12-16§lar/

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. $U_1+U_2+...+U_n+...=\sum_{n=1}^{\infty}U_n$ sonli qator deyiladi. Agar $S_n=\sum_{k=1}^{n}U_k$ qismiy yig'indining limiti $S=\lim_{n\to\infty}S_n$ mavjud bo'lsa, sonli qator yaqinlashuvchi deyiladi, S-sonli qatorning yig'indisi deyiladi.

Agar limit mavjud bo'lmasa, berilgan sonli qator uzoqlashuvchi deyiladi.

$\lim_{n\to\infty}u_n=0$ sonli qator yaqinlashuvchi bo'lishining zaruriy shartidir. Musbat hadli sonli qatorlar yaqinlashishning yetarli shartlari $(U_{n\geq0})$:

a) Agar $\lim_{n\to\infty}\frac{U_n}{V_n}=k(k\neq0,\infty)$ bo'lsa, u holda $\sum_{n=1}^{\infty}U_n$ va

$\sum_{n=1}^{\infty} V_n$ qatorlar bir vaqtda yaqinlashuvchi va uzoqlashuvchi bo'ladi.

Musbat hadli sonli qatorlar odatda quyidagi qatorlar bilan taqqoslanadi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n^{\alpha}}$$

$\alpha > 1$ bo'lganda yaqinlashuvchi va $\alpha \leq 1$ bo'lganda uzoqlashuvchi bo'ladi;

$$\sum_{n=1}^{\infty} q^{n-1}$$

$0 \leq q < 1$ bo'lganda yaqinlashuvchi va $q \geq 1$ uzoqlashuvchi qator bilan;

b) Dalamber alomati:

$\lim\limits_{n\to\infty} \frac{U_{n+1}}{U_n} = q$ bo'lsa, $\sum_{n=1}^{\infty} U_n$ qator $0 \leq q < 1$ bo'lganda yaqinlashuvchi bo'ladi, $q > 1$ uzoqlashuvchi bo'ladi. Agar $q = 1$ bo'lsa, qatorning yaqinlashishini bu alomat bilan aniqlab bo'lmaydi.

Huddi shunga o'xshash, Koshi alomati mavjud. Bundan tashqari integral alomati bilan ham qatorning yaqinlashuvchiligini tekshiriladi.

2. $U_1(x) + U_2(x) + \ldots + U_n(x)$ ko'rinishidagi qatorga funksional qator deyiladi. $a_0 + a_1 x + a_2 x^2 + \ldots + a_n x^n$ qator darajali qator deyiladi. a_i-lar qatorning koeffitsientlari. Darajali qatorning yaqinlashish sohasi markazi koordinatalar boshiga bo'lgan intervaldan iborat.

$-R$ dan $+R$ gacha bo'lgan intervalga darajali qatorning yaqinlashish qatori deyiladi, bu interval ichida yotgan har qanday x nuqtada qator yaqinlashadi, shu bilan birga absolyut yaqinlashadi, uning tashqarisidagi x nuqtalarda qator uzoqlashadi, R- darajali qatorning yaqinlashish radiusi deyiladi.

$$R=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{U_n}{U_{n+1}}\right|$$

formula bilan hisoblanadi. Darajali qatorlarning yaqinlashish intervalida hadlab differensiallash va integrallash mumkin.

3. 2ℓ davrli $f(x)$ funksiya uchun Fure qatori:

$$f(x)=\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}a_n\cos\frac{n\pi x}{e}+b_n\sin\frac{n\pi x}{e}$$

bu erda

$$a_n=\frac{1}{e}\int_{-e}^{e}f(x)\cos\frac{n\pi x}{e}dx, n=0,1,2....$$

$$b_n=\frac{1}{e}\int_{-e}^{e}f(x)\sin\frac{n\pi x}{e}dx, n=0,1,2....$$

Juft funksiya uchun Fure qatori:

$$f(x)=\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}a_n\cos\frac{n\pi x}{e}; b_n=0, a=\frac{2}{e}\int_{0}^{e}f(x)\cos\frac{n\pi x}{e}dx$$

faqat kosinuslarga bog'liq.

Toq funksiyalar uchun Fure qatori:

$$f(x)=\sum_{n=1}^{\infty}b_n\sin\frac{n\pi x}{e}; a_n=0, b=\frac{2}{e}\int_{0}^{e}f(x)\sin\frac{n\pi x}{e}dx$$

faqat sinuslarga bog'liq bo'lib qoladi.

4. $z_1+z_2+......+z_n+....$ qatorga kompleks hadli qator deyiladi, bu yerda: $z_n=x_n+iy_n (n=1,2,3)$. Qator yaqinlashsa, $\lim_{n\to\infty}z_n=0$ bo'ladi.

$$f(x)=c_0+\sum_{n=1}^{\infty}(c_ne^{inx}+c_ne^{-inx})$$

yoki qisqaroq

$$f(x)=\sum_{n=-\infty}^{\infty} c_n e^{inx}$$

ko'rinishdagi qator kompleks shakldagi Fure qatori deyiladi. Bu ifoda

$$\cos nx=\frac{c_n e^{inx}+c_n e^{-inx}}{2} \qquad \sin nx=\frac{c_n e^{inx}+c_n e^{-inx}}{2i}$$

larni Fure qatoriga qo'yib, ixchamlashtirishdan hosil bo'ladi. Koeffitsientlar

$$C_n=\frac{1}{2\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)e^{-inx}dx;\ C_{-n}=\frac{1}{2\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)e^{-inx}dx$$

formulalar orqali hisoblanadi va $f(x)$ funksiya Furening kompleks koeffitsientlari deyiladi.

Agar $f(x)$ 2ℓ davrli davriy funksiya bo'lsa, kompleks shakldagi Fure qatori

$$f(x)=\sum_{n=-\infty}^{\infty} C_n e^{i\frac{-n\pi}{\ell}x}$$

ko'rinishda bo'ladi, koeffitsientlar esa

$$C_n=\frac{1}{2e}\int_{-e}^{e} f(x)e^{i\frac{-n\pi x}{e}}dx (n=0,\pm1,\pm2...)$$

bo'ladi. Bu yerda: $e^{i\frac{-n\pi x}{e}}$ ifodalar garmoniklar deyilib,

$\alpha_n=\frac{n\pi}{e}(n=0\pm,\pm1,\pm2...)$ sonlar $f(x)=\sum_{n=-\infty}^{\infty} C_n e^{i\alpha_n k}$

Funksiyalarning to'lqin sonlari deyiladi. To'lqin sonlar to'plami **spektr** deyiladi.

$$f(x)=\frac{1}{\pi}\int_{0}^{\infty}\left(\int_{-\infty}^{\infty} f(t)\cos\alpha(t-x)dx\right)dx$$

ko'rinishdagi integralga **Fure integrali** deyiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1) Qatorlarning yaqinlashuvchi va uzoqlashuvchi bo'lishini ta'riflang. Geometrik progressiyaning hadlaridan tuzilgan qatorning yaqinlashuvchi bo'lishini tekshiring.
2) Qatorlarning yaqinlashuvchi bo'lishi uchun zaruriy shartni ko'rsating.
3) Qatorning oxirgi hadlarini tashlab yuborish qatorning yaqinlashuvchiligiga (uzoqlashuvchiligiga) ta'sir qilmasligini ko'rsating.
4) Dalamber, Koshi, integral alomatlari bilan qatorning yaqinlashuvchi bo'lishini ko'rsating. Misollar keltiring.
5) Qanday qatorlar mutlaq va shartli yaqinlashuvchi qatorlar deyiladi? Absolyut va shartli yaqinlashuvchi qatorlarga misollar keltiring.
6) Funksional qatorlarning yaqinlashish sohasini ta'riflang. Tekis yaqinlashuvchi qator deb qanday qatorga aytiladi?
7) Darajali qatorlarni yaqinlashishida Abel teoremasini ko'rsating. Darajali qatorning yaqinlashish radiusi qanday topiladi?
8) Darajali qatorlarni taqribiy hisoblarda qo'llanilishini ko'rsating.
9) Trigonometrik Fure qatorning koeffitsientlari qanday formulalar bilan hisoblanadi?
10) Juft va toq funksiyalar uchun Fure koeffitsientlarini topish formulalarini yozing.
11) Kompleks formadagi Fure qatorini tushuntiring.
12) Spektr deb nimaga aytiladi?
13) Fure integralini yozing.
14) Fure almashtirishini ta'riflang.

11- MAVZU. OPERATSION HISOB VA UNING TATBIQI

47. Laplas tasviri, uning xossalari. Operatsion hisobning asosiy teoremalari. Tasvirlar jadvali.
48. Tasvir orqali originallarni tiklash usullari. Laplas tasvirining o'ramasi.
49. Differensial tenglamalar va sistemalarni operatsion hisob usullari bilan yechish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

I. Operatsion hisobning asosiy tushunchasi Laplas tasviri hisoblanadi. Bunda $t \geq 0$ da aniqlangan haqiqiy o'zgaruvchining $f(t)$ funksiyasiga

$$F(p) = \int_0^{\infty} e^{-pt} f(t) dt$$

(bu yerda: p- kompleks o'zgaruvchi) $F(p)$ funksiya mos qo'yiladi.

Bu holda $f(t)$ funksiya **original**, $F(p)$ esa tasvir deyiladi, qisqacha $F(p) \to f(t)$ tasvir original $f(t) \leftarrow F(p)$ original- tasvir bilan belgilandi.

Tasvirning mavjudligi va xosmas integrallarning hammasi yaqinlashishi uchun $f(t)$ original quyidagi shartlarni qanoatlantirishi yetarli bo'ladi: 1) istalgan chekli intervalda $f(t)$ va $f'(t)$ chekli sondan ko'p bo'lmagan 1-tur uzilish nuqtalariga ega;

2) $T < 0$ uchun $f(t) \equiv 0$

3) $M > 0$ va $S > 0$ sonlar mavjudki, $|f(t)| \leq Me^{st}$ bo'ladi.

Chiziqlilik xossasi:

$$\sum_{i=1}^{n} c_i f_i(t) \Rightarrow \sum_{i=1}^{n} c_i F_i(P)$$

ya'ni originallarning chiziqli kombinatsiyasiga tasvirlarning chiziqli kombinatsiyasi mos keladi va aksincha.

O'xshashlik teoremasi: agar $a > 0$ va $f(t) \to F(p)$ bo'lsa, u holda

$$f(at) \to \frac{1}{a} F(\frac{P}{a})$$

bo'ladi. Tasvirning siljish teoremasi: $f(t) \to F(p)$ bo'lsa, u holda istalgan P_0 uchun $e^{-p_0 t} f(t) \to F(p + p_0)$ bo'ladi. Originalning kechikish teoremasi: Agar $t_0 > 0$ bo'lsa, u holda $f(t) \to F(p)$ dan

$$f(t - t_0) \to e^{-t_0 p} F(p)$$

kelib chiqadi.

Originalning o'zib ketish teoremasi: Agar $t_0 > 0$ bo'lsa, u holda

$$f(t) \to F(P) \text{ dan } f(t + t_0) \to e^{t_0 p} \left[F(P) - \int_0^{t_0} e^{-pt} f(t) dt \right]$$

kelib chiqadi.

2. Tasvir orqali originallarni tiklash uchun ajratish teoremasini qo'llash kerak. Tasviri to'g'ri ratsional kasr bo'lgan originalni topish uchun ratsional kasrlarni har xil elementar kasrlarning yig'indisi ko'rinishida yozib olinadi va original topiladi.

O'rama haqida teorema (tasvirlarni ko'paytirish teoremasi):

Agar $f_1(t), f_2(t)$ (1-3) shartlarni qanoatlantirsa, ular o'ramasining tasviri ko'paytuvchilar tasvirining ko'paytmasidan iborat bc'ladi, ya'ni

$$f_1(t) * f_2(t) \to F_1(P) F_2(P)$$

bo'ladi.

Teorema. Agar $f_1(t), f_2(t)$ funksiyalar $[0, \infty]$ da uzluksiz hosilalarga ega bo'lsa va $f_1(t) \to F_1(P)$, $f_2(t) \to F_2(P)$ bo'lsa, u holda

$$\frac{d}{dt}[f_1(t) * f_2(t)] \to pF_1(p)F_2(p) \qquad \text{bo'ladi.}$$

3. Operatsion hisob usuli bilan o'zgarmas koeffitsientli chiziqli differensial tenglamalarni va sistemalarni yechish mumkin. Bu usulda originalni o'z ichiga olgan tenglama (yoki sistema)ni tasvirga mos tenglama bilan almashtiriladi, so'ngra tasvirni topish uchun chiziqli algebraik tenglama (yoki sistema)ni yechish kifoya. Keyin esa topilgan tasvirdan foydalanib, originalni tiklash mumkin.

Operatsion usulni qo'llash uchun avvalo tasvirlar jadvalini yaxshi bilib olish kerak va operatsion hisobning asosiy teoremalarini qo'llashni bilish kerak.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Laplas tasviri qanday ta'riflanadi? Tasvir va original deb nimaga aytiladi?
2. 2 ta har xil uzluksiz funksiyalar bitta tasvirga ega bo'lishi mumkinmi?
3. Agar $F_1(p) \to f_1(t)$ va $F_2(p) \to f_2(t)$, bo'lsa, qaysi tasvir $af_1(t) + bf_2(t)(a, b - const)$ ifodani tasviri bo'ladi.
4. Agar $F(p) \to f(t)$ bo'lsa $e^{-\partial t} f(t)$ ifodaning tasviri qanday bo'ladi? Siljish teoremasini tasvirlang.

5. $\sin at$ va $\cos at$ funksiyalarining tasvirlarini toping.

6. Originallarni differensiallash va integrallash teoremalarini tushuntiring.

7. $\int_0^t f_1(\tau) f_2(t-\tau) d\tau$ ifodaning tasviri qanday bo'ladi? O'rama teoremasini tushuntiring.

8. O'zgarmas koeffitsientli differensial tenglamalar va sistemalarni operatsion usul bilan yechishni ko'rsating. Misol keltiring.

12- MAVZU. KARRALI VA SIRT INTEGRALLAR

50. Karrali, egri va sirt bo'yicha integrallar tushunchasiga olib keluvchi masalalar /2, XIV bob 1, 2-§lar , XV bob, 1-§/
51. Ikki va uch karrali integrallar va ularning xossalari. Karrali integrallarni takroriy integrallash yo'li bilan hisoblash. /2, XIV bob 1-4 §lar , 11-15-§/
52. Sirt yuzasi. Sirt integralining eng sodda xossalari va ularni ikki karrali integralga keltirish yo'li bilan hisoblash. /2, XV bob, 5-7-§lar./

Asosiy nazariy ma'lumotlar

XOY tekislikda *L* yopiq chiziq bilan chegaralangan *D* yopiq sohada $z = f(x,y)$ uzluksiz funksiya berilgan bo'lsa,

$$\lim_{\max dlam\Delta S_i \to 0} \sum_{i=1}^{n} f(p_i)\Delta S_i = \iint_D f(x,y)\alpha x dy$$

ifodaga ikki o'lchovli integral deyiladi.

Agar *D* soha $a \le x \le b,\ f_1(x) \le f_2(x)$ da o'zgarsa, ikki o'lchovli integralni hisoblash:

$$\iint_D f(x,y)dxdy = \int_a^b dx \int_{f_1(x)}^{f_2(x)} f(x,y)dy \qquad (1)$$

ko'rinishidagi ikki karrali integralga keltiriladi.

Agar *D* soha $c \le y \le d,\ \varphi_2(y) \le x \le \varphi_2(y)$ da o'zgarsa,

$$\iint_D f(x,y)dxdy = \int_c^d dy \int_{\varphi_1(y)}^{\varphi_2(y)} f(x,y)dx \qquad (2)$$

ko'rinishiga keltiriladi.

(1) dan (2) ga yoki aksincha o'tish integrallash tartibini

o'zgartirish deyiladi, ikki o'lchovli integralning qiymati integrallash tartibiga bog'liq.

2. D sohada aniqlangan $f(x,y,z)$ funksiyadan olingan uch o'lchovli integralni hisoblash

$$\iiint_V f(x,y,z)dxdydz = \iint_{D_{xy}} dxdy \int_{\varphi_1(x,y)}^{\varphi_2(x,y)} f(x,y,z)dz$$

ko'rinishdagi integralni hisoblashga keltiriladi, bu yerda, D_{xy} xOy tekislikning V sohaga proek-siyasi, $z=\varphi_1(x,y)$ va $z=\varphi_2(x,y)$ lar pastdan, yuqoridan chegaralangan V sohadagi sirtning tenglamasi. Ikki o'lchovli integralga o'xshash uch o'lchovli integralda ham integrallash tartibi o'zgartirilishi mumkin.

3. Birinchi tur egri chiziqli integral $\int_{(e)} f(x,y)dS$, ikkinchi to'g'ri egri chiziqli integral

$\int_{(r)} P(x,y,z)dx + Q(x,y,z)dy + R(x,y,z)dz$ berilgan

bo'lib, agar r- egri chiziq $x=x(t)$, $y=y(t)$, $z=z(t)$ $(\alpha \le t \le \beta)$ parametrik holda berilgan, u holda

$$\int_{(r)} P(x,y,z)dx + Q(x,y,z)dy + R(x,y,z)dz =$$

$$\int_\alpha^\beta (P(x(t),\ y(t), z(t))\, x`(t) + Q(x(t), y(t), z(t))\, y`(t) + R(x(t),$$
$$y(t), z(t))\, z`(t))dt$$

bo'ladi.

4. Birinchi tur sirt integrali $\iint_{(S)} f(x,y,z)dS$ ikkinchi tur sirt integrali

$$\iiint_{(S)} (P(x,y,z)dxdy + Q(x,y,z)dydz + R(x,y,z)dzdx$$

ko'rinishida bo'lib, sirt integralini hisoblash ikki o'lchovli integralni hisoblashga keltiriladi.

5. Uch o'lchovli integral yordamida:

a) jismning V hajmi va uning massasi M:

$$M = \iiint\limits_V \mu(x,y,z)dxdydz, \quad V = \iiint\limits_V dxdydz$$

bu yerda: μ- massa hajmiy zichligining tarqalishi;

b) bir jinsli jism inersiya momenti (masalan, oz o'qi bo'yicha) $I_z = \iiint\limits_V (x^2 + y^2)dxdydz$ hisoblanadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. D soha bo'yicha $f(x,y)$ funksiyadan olingan 2 o'lchovli integral deb nimaga aytiladi? Uning geometrik ma'nosi nimadan iborat?
2. D soha bo'yicha $f(x,y)$ funksiyadan olingan ikki karrali integral deb nimaga aytiladi, qanday hisoblanadi?
3. Ikki o'lchovli integral uchun o'rta qiymat haqidagi teoremani ta'riflang va geometrik ma'nosini ayting.
4. $\iint\limits_D \sqrt{1 + \left(\frac{dz}{dx}\right)^2 + \left(\frac{dz}{dy}\right)^2} dxdy$ integralning geometrik ma'nosini tushuntiring, bu yerda, D sohada uzluksiz xususiy hosilalarga ega bo'lgan $z = z(x,y)$ funksiya.
5. Uch o'lchovli integralni uch karrali integral yordamida hisoblash formulasini yozing.
6. Hajmiy zichlik $\mu = \mu(x,y,z)$ bo'lgan V jismning og'irlik markazining koordinatalarini hisoblash formulasini yozing.
7. Koordinatalar bo'yicha egri chiziqli integral deb nimaga aytiladi?
8. Sirt integralini ikki karrali integralga keltirish formulasidan foydalanib hisoblang.

13- MAVZU. EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARI

53. Hodisalar va ularning klassifikatsiyasi. Tasodifiy hodisalar haqida tushuncha. Nisbiy chastota va ehtimol. Ehtimollarning asosiy xossalari. Ehtimollarni hisoblash usullari /2, XX bob, 1-5-§lar; IV bob, 1-4-§lar/.
54. Bernulli sxemasi /2, XX bob, 6-§, IV, V bob, 1-4-§lar/.
55. Diskret va uzluksiz tasodifiy miqdorlar. Taqsimot qonuni. Taqsimot funksiyasi va uning xossalari /2, XX bob, 7-§lar; IV, VI bob, 1-6-§lar/.
56. Katta sonlar qonuni. Limit teoremalar haqida tushuncha /2, IX bob, 1-6-§lar; 5, V bob, VII bob/.
57. Tasodifiy miqdorning sonli xarakteristikalari. Matematik kutilma, dispersiya /2, 20-bob, 9, 10-§lar, IV, VII-VIII boblar/.
58. Korrelyatsiya va regressiya haqida tushuncha. Chiziqli korrelyatsiya, korrelyatsiya koeffitsienti. Tajribada olingan natijalarga ko'ra chiziqli korrelyatsiyani tekshirish. /4, XIV bob, 17, 18-§ lar; V, IV bob, 4-§/.
59. Matematik statistika elementlari. /IV, XV bob, 1-8-§ lar/.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. Hodisalar uch turga ajratiladi: muqarrar, ro'y bermaydigan va tasodifiy hodisalar.

Hodisalarning klassik ta'rifi: A hodisaning ehtimoli deb, tajribaning bu hodisani ro'y berishiga imkon tug'diruvchi natijalari sonining tajribaning yagona mumkin bo'lgan va teng imkoniyatli elementar natijalari jami soni nisbatiga aytiladi:

$$P(A)=\frac{m}{n}$$

bilan belgilanadi, bu yerda; $m-A$ hodisaning ro'y berishiga qulaylik tug'diruvchi elementar natijalar soni; n- tajribaning mumkin bo'lgan barcha elementar natijalari soni.

2. Hodisaning nisbiy chastotasi; hodisa ro'y bergan natijalar sonining aslida o'tkazilgan jami tajribalar soni nisbatiga aytiladi:

$$W(A)=\frac{M}{N}$$

M - hodisalarning ro'y berish soni;
N - tajribalarning jami soni.

3. $P_n(k)=\frac{n!}{k!(n-k)!}P^k q^{n-k}$ Bernulli formulasi.

4. Diskret tasodifiy miqdor deb, ayrim qiymatlarni ma'lum ehtimollar bilan qabul qiladigan miqdorga aytiladi. Uzluksiz tasodifiy miqdor deb, chekli yoki cheksiz oraliqdagi barcha qiymatlarni qabul qilish mumkin bo'lgan miqdorga aytiladi. Tasodifiy miqdorning qabul qiladigan qiymatlari bilan ularning ehtimollar orasidagi munosabatiga tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni deyiladi.

5. $M[x]=x_1p_1+x_2p_2+........+x_np_n$ ifodaga diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilishi deyiladi.

$x_1,x_2,......x_n$ tasodifiy miqdorning mumkin bo'lgan qiymatlari.

$P_1,P_2,....P_n$ mos ehtimollari.

$$D(x)=M(x^2)-[M(x)]^2$$

ifodaga dispersiya deyiladi.

6. X tasoddifiy o'z matematik kutilishidan chetlanishi mutlaq qiymati E musbat sondan kichik bo'lish ehtimoli.

$$1-\frac{D[x]}{E^2}$$

dan kichik emas.

$$P(|x-M[x]<E|)\geq 1-\frac{D[x]}{E^2}$$

Bu Chebishev tengsizligi deyiladi.

7. X tasodifiy miqdor ustida tajriba o'tkazish natijasida hosil qilingan $x_1,x_2,....x_n$ miqdorlarga boshqa Y tasodifiy

miqdorning ta'sirini o'rganishga to'g'ri keladi.

Agar X tasodifiy miqdorning har bir qiymatiga biror qonun asosida Y tasodifiy miqdorning aniq qiymati mos kelsa, u holda X va Y orasidagi munosabat statistik yoki korellyatsion munosabat deyiladi. Bu munosabatni jadval ko'rinishida ifodalash mumkin. Korrelyatsion munosabatlar to'g'ri, teskari, to'g'ri chiziqli, egri chiziqli va hokazo bog'lanishlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Bog'liqlik miqdori – r_{xy} korrelyatsiya koeffitsientini

$$r_{xy} = \frac{\sum x_i y_i - n\overline{x}\overline{y}}{n\ell_x \ell_y}$$

formula yordamida topish mumkin, bu yerda: σ_x, σ_y - X va Y ning o'rtacha kvadratik chetlanishi. X, Y - tenglamaning o'rtacha arifmetigi. Korrelyatsiya koeffitsientlari $r_{xy} r_{xz} r_{yz}$ ko'rinishda belgilanishi mumkin.

8. Statistika tabiatda va jamiyatda bo'ladigan ommaviy hodisalarni o'rganadi. Matematik statistikaning asosiy masalalari quyidagilardan iborat: noma'lum taqsimot funksiyani baholash; noma'lum parametrlarni baholash; statistik gipotezalarni tekshirish.

Tanlanma deb ajratiladigan obyektlar soniga aytiladi.

To'plam hajmi deb to'plamdagi obyektlar soniga aytiladi. Olingan obyekt kuzatish o'tkaziladigandan keyin bosh to'plamga qaytarilsa, takror tanlama qaytarilmasa, notakror tanlanma deyiladi.

Yuqorida keltirilgan masalalarni yechish uchun avvalo dastlabki statistik tekshirishlarni bajarish kerak.

Biror ξ tasodifiy miqdor ustida n marta kuzatish o'tkazib,

$$x_1, x_2, \ldots, x_n \qquad (1)$$

natijalar olingan bo'lsin. Agar $x_1, x_2, \ldots, x_n$ larni $x_1^* \le x_2^* \le \ldots \le x_n^*$ (yoki $x_1^* \ge x_{n-1}^* \ge \cdots x_2^* \ge x_1^*$) kabi joylashtiilrsa, $x_1^*, x_2^*, \dots, x_n^*$ variatsion qator deyiladi.

(1)tanlanmadagi x_i, $i=1,2,...,n$ larni esa variantalar deb yuritiladi.

Variantalarning har biri bir necha marta takrorlanishi mumkin: masalan, x_1^* varianta n_1 marta, x_2^* varianta n_2 marta, $...,x_n^*$ varianta esa n_k marta takrorlansin va $n=n_1+n_2+\dots+n_k$ bo'lsin, $n_1,n_2,\dots,n_k$ sonlar chastotasi deyiladi.

Har bir chastotaning tanlanma hajmi n ga nisbati shu variantaning nisbiy chastotasi deyiladi:

$W_i=\frac{n_i}{n}$, $\quad i=\overline{1,k}$ kabi belgilanadi.

$$x_i: \quad x_1, x_2, \dots, x_k;$$
$$W_i: \quad W_1, W_2, \dots, W_k;$$

jadval ξ tasodifiy miqdorning statistik yoki empirik taqsimoti deyiladi. Nisbiy chastotalar yigindisi

$$W_1+W_2+\dots+W_k=\frac{n_1}{n}+\frac{n_2}{n}+\dots+\frac{n_k}{n}=\frac{n_1+n_2+\dots+n_k}{n}=\frac{n}{n}=1$$

bo'ladi.

Variantalarning x sondan kichik bo'lgan qiymatlarining chastotasi

$$F_n(x)=\frac{m(x)}{n}$$

empirik taqsimot funksiya deyiladi, $m(x)$ x dan kichik bo'lgan variantalar soni, n - tanlanma to'plamining hajmi.

Empirik taqsimotni grafik usulda tasvirlashda poligon va gistogramma muhim rol o'ynaydi.

Chastotalar poligoni deb, (n_1,n_1); (n_2,n_2); ..., (n_k,n_k) nuqtalarni tutashtiruvchi siniq chiziqqa aytiladi. Nisbiy chastotalar poligoni deb esa $(X_1,W_1),(X_2,W_2),\dots,(X_k,W_k)$ nuqtalarni tutashtiruvchi siniq chiziqlarga aytiladi.

Chastotalar gistogrammasi deb, asoslari h uzunlikdagi intervallar, balandliklari esa, n_i dan iborat bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklardan iborat pog'onasimon shaklga aytiladi, bu yerda; h- bosh to'plamning kuzatiladigan qiymatlarini o'z ichiga olgan interval to'plamining kuzatiladigan qiymatlarni o'z ichiga olgan interval uzunligi, n_i- intervalga tushgan variantalar soni.

Matematik statistika o'rganadigan masalalardan biri taqsimotning turli sonli xarakteristikalarini baholashdan iborat.

(L) tanlanmaning o'rta arifmetik qiymati

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^{n} x_i}{n}$$

bo'ladi, tanlanma dispersiyasi deb,

$$\sigma^2 = \frac{\sum_{i=1}^{n} n_i (x_i - \bar{x})^2}{n}$$

ifodaga aytiladi.

Tanlanma dispersiyasidan musbat ishora bilan olingan kvadrat ildiz

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^{n} n_i (x_i - \bar{x})^2}{n_i}}$$

taqsimotining o'rtacha kvadratik chetlanishi deyiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1) Ehtimolning klassik ta'sirini bering. Nisbiy chastota bilan ehtimollik orsidagi farq nimadan iborat?
2) Hodisalar yig'indisi deb nimaga aytiladi? Qo'shish teoremasini isbotlang.

3) Bernulli formulasini ta'riflang. Laplasning lokal va integral teoremasi qanday?
4) To'liq ehtimol formulasini yozing.
5) Beyes formulasini keltirib chiqaring. Puasson taqsimoti qanday?
6) Tasodifiy miqdorning taqsimot finktsiyasi deb nimaga aytiladi? Tekis taqsimlangan tasodifiy miqdor deb nimaga aytiladi?
7. Matematik kutilish deb nimaga aytiladi? Uning xossalarini tushuntiring.
8. Dispersiya va uning xossalarini tushuntiring. O'rta kvadratik chetlanish deb nimaga aytiladi?
9. Katta sonlar qonunini ta'riflang. Katta sonlar qonunining bajarilishi uchun zaruriy va yetarli shartlarni yozing.
10. Limit teoremalar haqida tushuncha bering. Korrelyatsiya koeffitsienti deb nimaga aytiladi?
11. Korrelyatsiya va regressiya tushunchasini bering. Korrelyatsiya koeffitsienti deb nimaga aytiladi?
12. Tanlanma va variatsion qator deb nimaga aytiladi?
13. Poligon va gistogramma nima?

1- NAZORAT ISHI

1- masala.

Quyidagi tenglamalar sistemasini birgalikda ekanligini ko'rsating va uch xil usulda:

1. Gauss usuli;
2. Kramer qoidasi;
3. Matritsa hisobi bilan yeching.

$$\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 = 2 \\ 3x_1 - x_2 + x_3 = 1 \\ 2x_1 - x_2 + 3x_3 = 1 \end{cases}$$

Yechish:

Sistemaning asosiy determinantini hisoblaymiz:

$$|A| = \begin{vmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 3 & -1 & 1 \\ 2 & -1 & 3 \end{vmatrix} = -3 + 32 + -2 - 9 + 1 = -8 \neq 0$$

demak sistema birgalikda ekan, chunki $r(A) = r(B) = 3$.

Bu yerda: B sistemaning kengaytirilgan matritsasi. Endi sistemaning yechimini topamiz.

1. Gauss usuli. Yetakchi tenglama sifatida birinchi tenglamani olamiz va uni avval (-3)ga , so'ngra (-2)ga ko'paytirib, mos ravishda ikkinchi va uchinchi tenglamalarga qo'shamiz.

$$\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 = 2 \\ -4x_2 + 4x_3 = -5 \\ -3x_2 + 5x_3 = -3 \end{cases}$$

Endi yetakchi tenglama sifatida ikkinchi tenglamani olamiz. Uni (-4) ga bo'lib, so'ngra 3 ga ko'paytiramiz va uchinchi tenglamaga qo'shamiz:

$$\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 = 2 \\ x_2 - x_3 = \dfrac{5}{4} \\ 2x_3 = \dfrac{3}{4} \end{cases}$$

Endi teskari yo'l bilan noma'lumlarni topamiz:

$$x_3 = \frac{3}{8}$$

$$x_2 = x_3 + \frac{5}{4} = \frac{3}{8} + \frac{5}{4} = \frac{13}{8}$$

$$x_1 = 2 + x_3 - x_2 = 2 + \frac{3}{8} - \frac{13}{8} = \frac{3}{4}$$

Biror tenglamaga qo'yib tekshirish mumkin. Masalan: ikkinchi tenglamada noma'lumlar o'rniga topilganlarni qo'yaylik:

$$3 \cdot \frac{3}{4} - \frac{13}{8} + \frac{3}{8} = 1$$

$$\frac{9}{4} - \frac{13}{8} + \frac{3}{8} = 1, \qquad 1 = 1 \qquad \text{demak to'g'ri.}$$

2. Kramer qoidasi. Biz asosiy determinantni hisobladik. Endi yordamchi determinantni hisoblaylik.

$$\Delta_1 = \begin{vmatrix} 2 & 1 & -1 \\ 2 & -1 & 1 \\ 2 & -1 & 3 \end{vmatrix} = -6 + 1 + 1 - 1 - 3 + 2 = -6$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} 1 & 2 & -1 \\ 3 & 1 & 1 \\ 2 & 1 & 3 \end{vmatrix} = 3 - 3 + 4 + 2 - 18 - 1 = -13$$

$$\Delta_3 = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 2 \\ 3 & -1 & 1 \\ 2 & -1 & 1 \end{vmatrix} = -1-6+2+4-3+1 = -3$$

$$x_1 = \frac{\Delta_1}{|A|} = \frac{-6}{-8} = \frac{3}{4}, \qquad x_2 = \frac{\Delta_2}{|A|} = \frac{-13}{-8} = \frac{13}{8},$$

$$x_3 = \frac{\Delta_3}{|A|} = \frac{-3}{-8} = \frac{3}{8}$$

3. Matritsa hisobi. Sistemani $Ax = b$ matritsa ko'rinishida yozaylik. Bundan $x = A^{-1} \cdot b$. Bu yerda sistema matritsasi

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 3 & -1 & 1 \\ 2 & -1 & 3 \end{pmatrix}$$

A^{-1} esa A ga teskari matritsa; x, b lar ustun matritsalar:

$$x = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}, \qquad x = \begin{pmatrix} 2 \\ 1 \\ 1 \end{pmatrix}$$

A^{-1} teskari matritsani hisoblaymiz.

$$A^{-1} = \frac{1}{|A|} \begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} & A_{31} \\ A_{12} & A_{22} & A_{32} \\ A_{13} & A_{23} & A_{33} \end{pmatrix}$$

bu yerda A_{ij} lar algebraik to'ldiruvchilar.

$$A_{11} = \begin{vmatrix} -1 & 1 \\ -1 & 3 \end{vmatrix} = -3+1 = -2,$$

$$A_{21} = -\begin{vmatrix} 1 & -1 \\ -1 & 3 \end{vmatrix} = -(3-1) = -2$$

$$A_{12}=\begin{vmatrix}3 & 1\\ 2 & 3\end{vmatrix}=-(9-2)=-7,\qquad A_{22}=\begin{vmatrix}1 & -1\\ 2 & 3\end{vmatrix}=3+2=5$$

$$A_{13}=\begin{vmatrix}3 & -1\\ 2 & -1\end{vmatrix}=-3+2=-1,\qquad A_{23}=\begin{vmatrix}1 & 1\\ 2 & -1\end{vmatrix}=-(-1-2)=3$$

$$A_{31}=\begin{vmatrix}1 & -1\\ -1 & 1\end{vmatrix}=1-1=0$$

$$A_{32}=\begin{vmatrix}1 & -1\\ 3 & 1\end{vmatrix}=-(1+3)=-4$$

$$A_{33}=\begin{vmatrix}1 & 1\\ 3 & -1\end{vmatrix}=-1-3=-4$$

$$A^{-1}=\frac{1}{-8}=\begin{pmatrix}-2 & -2 & 0\\ -7 & 5 & -4\\ -1 & 3 & -4\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}\frac{1}{4} & \frac{1}{4} & 0\\ \frac{7}{8} & -\frac{5}{8} & \frac{1}{2}\\ \frac{1}{8} & -\frac{3}{8} & \frac{1}{2}\end{pmatrix}$$

$$X=A^{-1}\cdot b=\begin{pmatrix}\frac{1}{4} & \frac{1}{4} & 0\\ \frac{7}{8} & -\frac{5}{8} & \frac{1}{2}\\ \frac{1}{8} & -\frac{3}{8} & \frac{1}{2}\end{pmatrix}\cdot\begin{pmatrix}2\\ 1\\ 1\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}\frac{1}{4}\cdot 2+\frac{1}{4}\cdot 1+0\cdot 1\\ \frac{7}{8}\cdot 2-\frac{5}{8}\cdot 1+\frac{1}{2}\cdot 1\\ \frac{1}{8}\cdot 2-\frac{3}{8}\cdot 1+\frac{1}{2}\cdot 1\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}\frac{3}{4}\\ \frac{13}{8}\\ \frac{3}{8}\end{pmatrix}$$

demak, $x_1=\frac{3}{4},\quad x_2=\frac{13}{8},\quad x_3=\frac{3}{8}$

Biz uch xil usulda ham bir xil javob oldik.

Javob: $x_1=\frac{3}{4},\quad x_2=\frac{13}{8},\quad x_3=\frac{3}{8}$

2– masala.

Ikki chiziqli almashtirishlar berilgan. Matritsa hisobi bilan x_1'', x_2'' , x_3'' larni x_1, x_2, x_3 lar orqali ifodalovchi almashtirishlarni toping.

$$\begin{cases} x_1' = 2x_1 - x_2 + 3x_3 \\ x_2' = x_1 - x_2 \\ x_3' = x_2 + 4x_3 \end{cases} \qquad \begin{cases} x_1'' = 3x_1' + x_2' - x_3' \\ x_2'' = x_1' - 2x_3' \\ x_3'' = x_1' + 5x_2' \end{cases}$$

Yechish:

Almashtirishlarni matritsa ko'rinishida yozaylik: $x` = Ax$, $x`` = Bx`$ bundan $x`` = BAx$ kelib chiqadi.

Demak,

$$B\cdot A = \begin{pmatrix} 3 & 1 & -1 \\ 0 & 1 & -2 \\ 1 & 5 & 0 \end{pmatrix}\begin{pmatrix} 2 & -1 & 3 \\ 1 & -1 & 0 \\ 0 & 1 & 4 \end{pmatrix} =$$

$$\begin{pmatrix} 3\cdot 2+1\cdot 1+(-1)\cdot 0 & 3\cdot(-1)+1\cdot(-1)+(-1)\cdot 1 & 3\cdot 3+1\cdot 0+(-1)\cdot 4 \\ 0\cdot 2+1\cdot 1+(-2)\cdot 0 & 0\cdot(-1)+1\cdot(-1)+(-2)\cdot 1 & 0\cdot 3+1\cdot 0+(-2)\cdot 4 \\ 1\cdot 2+5\cdot 1+0\cdot 0 & 1\cdot(-1)+5\cdot(-1)+0\cdot 1 & 1\cdot 3+5\cdot 0+0\cdot 4 \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 7 & -5 & 5 \\ 1 & -3 & -8 \\ 7 & -6 & 3 \end{pmatrix}$$

Demak, izlanayotgan almashtirishlar quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{cases} x_1^{``} = 7x_1 - 5x_2 + 5x_3 \\ x_2^{``} = x_1 - 3x_2 - 8x_3 \\ x_3^{``} = 7x_1 - 6x_2 + 3x_3 \end{cases}$$

3- masala.

Biror bazisda matritsa holida berilgan chiziqli almashtirishlarning xos son va xos vektorlarini toping.

$$\begin{pmatrix} 1 & 1 & 3 \\ 1 & 5 & 1 \\ 3 & 1 & 1 \end{pmatrix}$$

Yechish:

Xarakterestik tenglamani tuzamiz.

$$\begin{vmatrix} 1-\lambda & 1 & 3 \\ 1 & 5-\lambda & 3 \\ 1 & 1 & 1-\lambda \end{vmatrix} = 0$$

$$(1-\lambda)^2(5-\lambda)+3+3-9(5-\lambda)-(1-\lambda)-(1-\lambda)=0$$

elementar shakl almashtirishdan so'ng $(\lambda+2)(-\lambda^2+9\lambda-18)=0$ ni hosil qilamiz. Bundan $\lambda_1=-2$, $\lambda_2=3$, $\lambda_3=6$ xos sonlarni topamiz.

$\lambda_1=-2$ xos songa mos keluvchi vektorni topamiz. Buning uchun

$$\begin{cases} (1-(-1))U_1+U_2+3U_3=0 \\ U_1+(5-(-2))U_2+U_3=0^0 \\ 3U_1+U_2+(1-(-2))U_3=0 \end{cases}$$

tenglamalar sistemasini yechamiz.

$$\begin{cases} 3U_1+U_2+3U_3=0 \\ U_1+7U_2+U_3=0 \\ 3U_1+U_2+3U_3=0 \end{cases}$$

Bitta tenglamani tashlab yuboramiz va $U_2=0$ ni topamiz.

$U_3=-U_1$ (U_1 - erkli o'zgaruvchi, U_3 - bazis o'zgaruvchi). Bundan birinchi xos vektorni topamiz.

$\vec{U}(U_1, U_2, U_3)=U_3(1, 0, -1)$.

$\lambda_2=3$ xos son uchun

$$\begin{cases}(1-3))V_1+V_2+3V_3=0\\ V_1+(5-3)V_2+V_3=0\\ 3V_1+V_2+(1-3)V_3=0\end{cases}$$ sistemani tuzamiz.

$$\begin{cases}-2V_1+V_2+3V_3=0\\ V_1+2V_2+V_3=0\\ 3V_1+V_2-2V_3=0\end{cases}$$ Ikkkinchi tenglamani (-3)ga

ko'paytirib uchinchi tenglamaga qo'shsak, $V_2=-V_3$ kelib chiqadi. Bundan $V_1=V_3$

Ikkinchi xos vektor $\vec{V}(V_1, V_2, V_3)=V_3(1,-1,1)$

$$\lambda_3=6 \qquad \begin{cases}-5W_1+W_2+3W_3=0\\ W_1-W_2+W_3=0\\ 3W_1+W_2-5W_3=0\end{cases}$$

Birinchi va ikkinchi tenglamalarni qo'shsak, $W_1=W_3$ kelib chiqadi.

Bundan $W_2=W_1+W_3=2W_3$

Uchinchi xos vektor $\vec{W}(W_1, W_2, W_3)=W_3(1,2,1)$

JAVOB: $\lambda_1=-2,\ \lambda_2=3,\ \lambda_3=6$

$$\vec{U}=U_1(1,0,-1)$$

$$\vec{V}=U_3(1,-1,1)$$

$$\vec{W}=W_3(1,2,1)$$

4 - masala.

Quyidagi egri chiziq tenglamasini kanonik holga keltiring.

$$4x^2+4\sqrt{3}xy+5y^2=10$$

Yechish:

Uning matritsasi

$$A=\begin{pmatrix}4 & 2\sqrt{3}\\ 2\sqrt{3} & 5\end{pmatrix}$$ bo'ladi.

$$\begin{vmatrix}4-\lambda & 2\sqrt{3}\\ 2\sqrt{3} & 5-\lambda\end{vmatrix}=0$$

xarakteristik tenglamani yechamiz:

$$(4-\lambda)(5-\lambda)-12=0$$

$$\lambda^2-9\lambda+8=0$$

$\lambda_1=1$, $\lambda_2=8$ xos sonlarni topamiz. Demak,

$4x^2+4\sqrt{3}xy+5y^2$ kvadratik forma

$1(x`)^2+8(y`)^2$ ko'rinishida berilgan, tenglama esa

$(x`)^2+8(y`)^2=10$ ko'rinishiga keladi. Yoki

$\frac{(x`)^2}{10}+\frac{(y`)^2}{5/4}=1$ bu ellips tenglamasi.

5- masala

A_1, A_2, A_3, A_4 - piramida uchlarining koordinatalari berilgan. Quyidagilarni toping:

1. $A_1\ A_2$ qirra uzunligini;
2. $A_1\ A_2$ va $A_1\ A_4$ qirralar orasidagi burchakni;
3. $A_1\ A_4$ va $A_1\ A_2\ A_3$ yoq orasidagi burchakni;
4. $A_1\ A_2\ A_3$ yoq yuzasini;
5. piramida hajmini.

$A_1(8;\ 6;\ 4)$, $A_2(10;\ 5;\ 5)$, $A_3(5;\ 6;\ 8)$, $A_4(8;\ 10;\ 7)$

Yechish:

1. Ikki nuqta orasidagi masofani hisoblash formulasidan qirraning uzunligini hisoblaymiz.

$$|A_1\ A_2|=\sqrt{(x_2-x_1)^2+(y_2-y_1)^2+(z_2-z_1)^2}=$$

$$=\sqrt{(10-8)^2+(5-6)^2+(5-4)^2}=\sqrt{6}$$ uz. b

2. $A_1 \ A_2$ va $A_1 \ A_4$ qirralar orasidagi burchakni

$$\cos\varphi = \frac{\overline{A_1A_2}\cdot\overline{A_1A_4}}{\left|\overline{A_1A_2}\right|\cdot\left|\overline{A_1A_4}\right|}$$ formula bilan hisoblaymiz.

Bizda $\overline{A_1A_2} = (10-8)\bar{i} + (5-6)\bar{j} + (5-4)\bar{k} = 2\bar{i} - \bar{j} + \bar{k}$

$$\overline{A_1A_2} = (8-8)\bar{i} + (10-6)\bar{j} + (7-4)\bar{k} = 4\bar{j} + 3\bar{k}$$

$\left|\overline{A_1A_2}\right| = \sqrt{6}$, $\quad \left|\overline{A_1A_4}\right| = 5$

$$\overline{A_1A_2}\cdot\overline{A_1A_4} = 2\cdot 0 + (-1)4 + 1\cdot 3 = -1$$

$$\cos\varphi = -\frac{1}{5\sqrt{6}} \approx -\frac{1}{12.25} \approx -0.08, \qquad \varphi \approx 95^0$$

(Bradis jadvalidan).

3. Ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasidan $A_1 \ A_4$ tenglamasini tuzamiz:

$$\frac{x-8}{8-8} = \frac{y-6}{10-6} = \frac{z-4}{7-4}$$

$$\frac{x-8}{0} = \frac{y-6}{4} = \frac{z-4}{3}$$

Endi $A_1 \ A_2 \ A_3$ yon tenglamasini tuzish uchun uch nuqtadan o'tuvchi tekislik tenglamasidan foydalanamiz:

$$\begin{vmatrix} x-x_1 & y-y_1 & z-z_1 \\ x_2-x_1 & y_2-y_1 & z_2-z_1 \\ x_3-x_1 & y_3-y_1 & z_3-z_1 \end{vmatrix} = 0$$

$$\begin{vmatrix} x-8 & y-6 & z-4 \\ 10-8 & 5-6 & 5-4 \\ 5-8 & 6-6 & 8-4 \end{vmatrix} = 0$$

$$\begin{vmatrix} x-8 & y-6 & z-4 \\ 2 & -1 & 1 \\ -3 & 0 & 4 \end{vmatrix} = 0$$

$$-4(x-8)-11(y-6)-3(z-4)=0$$

$$4x+11y+3z-110=0$$

$$\frac{x-x_1}{l}=\frac{y-y_1}{m}=\frac{z-z_1}{n}$$

to'g'ri chiziq va $Ax+By+Cz+D=0$ tekislik orasidagi burchagi

$$\sin\varphi=\frac{Al+Bm+Cn}{\sqrt{A^2+B^2+C^2}\cdot\sqrt{l^2+m^2+n^2}}$$

hisoblash formulasidan A_1 A_4 qirra va A_1 A_2 A_3 yoq orasidagi burchagini topamiz:

$$\sin\varphi=\frac{4\cdot 0+11\cdot 4+3\cdot 3}{\sqrt{4^2+4^2+3^2}\cdot\sqrt{0^2+4^2+3^2}}=\frac{53}{5\sqrt{146}}\approx 0.88$$

4. A_1 A_2 A_3 yoq yuzasi $\overline{A_1A_2}\cdot\overline{A_1A_3}$ vektor ko'paytma modulining yarmiga teng.

$$\overline{A_1A_2}\cdot\overline{A_1A_3}=\begin{vmatrix}\bar{i} & \bar{j} & \bar{k}\\ 2 & -1 & 1\\ -3 & 0 & 4\end{vmatrix}=-4\bar{i}-11\bar{j}-3\bar{k}$$

$$\overline{A_1A_2}\cdot\overline{A_1A_3}=\sqrt{4^2+11^2+3^2}=\sqrt{146}$$

$$S_{\Delta A_1B_1C_1}=\frac{1}{2}\cdot\sqrt{146}\approx 6.0 \text{ kv. b.}$$

5. A_2 A_3 A_4 piramida hajmi $\overline{A_1A_2}\cdot\overline{A_1A_3}\cdot\overline{A_1A_4}$ aralash ko'paytmaning $\frac{1}{6}$ qismiga teng:

$$\begin{vmatrix}2 & -1 & 1\\ -3 & 0 & 4\\ 0 & 4 & 3\end{vmatrix}=-12-9-32=-53$$

$$V_{\ddot{\imath}\grave{e}\eth}=\frac{1}{6}|-53|=\frac{53}{6}\approx 8{,}83 \text{ hajm birligi.}$$

6- masala

Uchburchak uchlarining koordinatalari berilgan: A(1; 1), V(4; 5) va S(13; -4) V uchidan tushirilgan mediana tenglamasi va S uchidan tushirilgan balandlik tenglamasi tuzilsin.

Uchburchakning yuzini hisoblang.

Yechish:



BL medriananing tenglamasini tuzish uchun L nuqtaning koordinatalarini topamiz. Shartga ko'ra $AL = LC$

$$X_L = \frac{X_A + X_C}{2} = \frac{13+1}{2} = 7$$

$$Y_L = \frac{Y_A + Y_C}{2} = \frac{1-4}{2} = -\frac{3}{2}$$

$$BL: \quad \frac{y-5}{-\frac{3}{2}-5} = \frac{x-4}{7-4}, \qquad \frac{y-5}{-\frac{13}{2}} = \frac{x-4}{3}$$

bundan $13x + 6y - 82 = 0$, CK balandlik tenglamasini tuzish uchun C nuqtadan to'g'ri chiziq tenglamasini topamiz. $y + 4 = k(x-13)$. Endi k ni topish uchun AB tenglamasini tuzib, uning burchak koeffitsientini topish lozim.

$$AB: \frac{y-1}{5-1}=\frac{x-1}{4-1} \quad \text{yoki} \quad \frac{y-1}{4}=\frac{x-1}{3}$$

bundan $y=\frac{4x}{3}-\frac{1}{3}$ yoki $4x-3y-1=0$

shartga ko'ra $CK \perp AB$ $\quad k=-\frac{1}{\frac{3}{4}}=-\frac{3}{4}$

Demak, $CK: \quad y+4=-\frac{3}{4}(x-13)$

yoki $3x+4y-23=0$

Endi ΔABC ning yuzini hisoblash uchun CK balandlik va AB tomon uzunligini topish kerak:

$$S_\Delta=\frac{CK\cdot AB}{2}$$

Berilgan nuqtadan to'g'ri chiziqqacha masofa formulasidan

$$|CK|=L=\frac{|Ax_0+By_0+C|}{\sqrt{A^2+B^2}}=\frac{|4\cdot 13-3\cdot(-4)-1|}{\sqrt{4^2+3^2}}=\frac{|52+12-1|}{5}=\frac{63}{5}$$

$$|AB|=\sqrt{(4-1)^2+(5-1)^2}=\sqrt{3^2+4^2}=5$$

Demak, $S_\Delta=\frac{\frac{63}{5}\cdot 5}{2}=31.5$ kv.bir.

JAVOB: $13x+16y-82=0$

$3x+4y-23=0$

$S=31.5$ kv.b.

7- masala

a - kompleks son berilgan. Quyidagilarni toping.

1. a sonini algebraik va trigonometrik shaklda yozing.
2. $z^3+a=0$ tenglamaning hamma ildizlarini toping.

$$a=\frac{1}{1+i\sqrt{3}}$$

Yechish:

1. $a=x+yi$ - algebraik ko'rinishga keltiramiz.

$$a=\frac{1}{1+i\sqrt{3}}=\frac{1-i\sqrt{3}}{\left(1+i\sqrt{3}\right)\left(1-i\sqrt{3}\right)}=\frac{1-i\sqrt{3}}{1^2+(\sqrt{3})^2}=\frac{1}{4}-\frac{\sqrt{3}}{4}i$$

$a=r(\cos\varphi+i\sin\varphi)$ ko'rinishiga keltiramiz

$$\varphi=arctg\frac{y}{x}=arctg\frac{-\frac{\sqrt{3}}{4}}{\frac{1}{4}}=arctg\left(-\sqrt{3}\right)=\frac{5\pi}{3},$$

chunki $x>0$, $y<0$ IV chorak. $a=\frac{1}{2}\left(\cos\frac{5\pi}{3}+i\sin\frac{5\pi}{3}\right)$

2. $z^3=-a$

$$-a=-\frac{1}{1+i\sqrt{3}}=-\frac{1}{4}+\frac{\sqrt{3}}{4}i$$

$r=\frac{1}{2}$, $\varphi=\frac{2\pi}{3}$, ya'ni $x<0$, $y>0$ II chorak.

$$-a=\frac{1}{2}\left(\cos\frac{2\pi}{3}+i\sin\frac{2\pi}{3}\right)$$

$$z=\sqrt[3]{-a}=\sqrt[3]{\frac{1}{2}\left(\cos\frac{2\pi}{3}+i\sin\frac{2\pi}{3}\right)}$$

$$\sqrt[n]{r(\cos\varphi+i\sin\varphi)}=\sqrt[n]{r}\left(\cos\frac{\varphi+k\pi}{n}+i\sin\frac{\varphi+2k\pi}{n}\right)$$

Bu yerda $k=/0,1,2,\ldots,n-1/$ formuladan foydalanamiz.

$$z=\sqrt[3]{\frac{1}{2}}\cdot\left(\cos\frac{\frac{2\pi}{3}+2k\pi}{3}+i\sin\frac{\frac{2\pi}{3}+2k\pi}{3}\right)$$

$$k=0, \quad z=\sqrt[3]{\frac{1}{2}}\cdot\left(\cos\frac{2\pi}{9}+i\sin\frac{2\pi}{9}\right)$$

$$k=1, \quad z=\sqrt[3]{\frac{1}{2}}\cdot\left(\cos\frac{8\pi}{9}+i\sin\frac{8\pi}{9}\right)$$

$$k=2, \quad z=\sqrt[3]{\frac{1}{2}}\cdot\left(\cos\frac{14\pi}{9}+i\sin\frac{14\pi}{9}\right)$$

1- NAZORAT ISHI BO'YICHA MASALALAR

1–20 masalalarda chiziqli tenglamalar sistemasini birgalikda ekanini ko'rsating va uch xil usulda:

1. Gauss usuli;
2. Kramer qoidasi;
3. Matritsa hisobi bilan yeching.

1. $\begin{cases} 3x_1+4x_2+2x_3=8 \\ 2x_1-4x_2-3x_3=-1 \\ x_1+5x_2+x_3=0 \end{cases}$

2. $\begin{cases} 7x_1-5x_2=31 \\ 4x_1+11x_3=-43 \\ 2x_1+3x_2+4x_3=-20 \end{cases}$

3. $\begin{cases} 5x_1+8x_2-x_3=7 \\ 2x_1-3x_2+2x_3=1 \\ x_1+2x_2+3x_3=1 \end{cases}$

4. $\begin{cases} x_1+2x_2+x_3=4 \\ 3x_1-5x_2+3x_3=1 \\ 2x_1+7x_2-x_3=8 \end{cases}$

5. $\begin{cases} 3x_1+x_2+x_3=5 \\ x_1-4x_2-2x_3=-3 \\ -3x_1+5x_2+6x_3=7 \end{cases}$

6. $\begin{cases} x_1+x_2-x_3=1 \\ 8x_1+3x_2-6x_3=2 \\ -4x_1-x_2+3x_3=6 \end{cases}$

7. $\begin{cases} 2x_1-x_2+5x_3=4 \\ 5x_1+2x_2+13x_3=-23 \\ 3x_1+x_2+5x_3=0 \end{cases}$

8. $\begin{cases} x_1-2x_2+3x_3=6 \\ 2x_1+3x_2-4x_3=20 \\ 3x_1-2x_2-5x_3=6 \end{cases}$

9. $\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 = -2 \\ 4x_1 - 3x_2 + x_3 = 1 \\ 2x_1 + x_2 - 5x_3 = 1 \end{cases}$
10. $\begin{cases} 4x_1 - 3x_2 + 2x_3 = 9 \\ 2x_1 + 5x_2 - 3x_3 = 14 \\ 5x_1 + 6x_2 - 2x_3 = 18 \end{cases}$

11. $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + x_3 = 4 \\ x_1 - 12x_2 + 4x_3 = -7 \\ 3x_1 - 5x_2 + 3x_3 = 1 \end{cases}$
12. $\begin{cases} x_1 - 5x_2 - x_3 = -14 \\ x_1 - 2x_2 + 3x_3 = 6 \\ 2x_1 + 3x_2 - 4x_3 = 20 \end{cases}$

13. $\begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = 7 \\ 2x_1 - x_2 + x_3 = 2 \\ 3x_1 - 5x_2 + 2x_3 = -7 \end{cases}$
14. $\begin{cases} x_1 - x_2 + 7x_3 = 6 \\ 2x_1 + 3x_2 - 3x_3 = 16 \\ 3x_1 + 2x_2 + 5x_3 = 17 \end{cases}$

15. $\begin{cases} 8x_1 + 4x_2 + 3x_3 = 7 \\ 2x_1 + 6x_2 - 2x_3 = 4 \\ 3x_1 + 10x_2 + x_3 = 11 \end{cases}$
16. $\begin{cases} -2x_1 + x_2 + 7x_3 = 1 \\ 3x_1 - 3x_2 + 8x_3 = 20 \\ 5x_1 + 4x_2 - x_3 = 1 \end{cases}$

17. $\begin{cases} x_1 + 5x_3 = 0 \\ 3x_1 + 2x_2 + 7x_3 = 4 \\ 5x_1 + 9x_3 = 16 \end{cases}$
18. $\begin{cases} x_1 + 4x_2 + 6x_3 = 14 \\ -2x_1 + 7x_2 + 4x_3 = 18 \\ 3x_1 + 2x_2 + 2x_3 = 6 \end{cases}$

19. $\begin{cases} -2x_1 + 3x_2 + 5x_3 = 18 \\ x_1 - 3x_2 + 4x_3 = 25 \\ 7x_1 + 8x_2 - x_3 = 1 \end{cases}$
20. $\begin{cases} 3x_1 - 4x_2 + 2x_3 = 1 \\ 4x_1 - 2x_2 + x_3 = 3 \\ 5x_1 - x_2 + 3x_3 = 2 \end{cases}$

21–40 ikkita chiziqli almashtirishlar berilgan. Matritsa hisobi bilan x_1'', x_2'', x_3'' larni x_1, x_2, x_3 lar orqali ifodalovchi almashtirishlarni toping.

21. $\begin{cases} x_1' = 5x_1 - x_2 + 3x_3 \\ x_2' = x_1 - 2x_2 \\ x_3' = 7x_2 - x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 2x_1' + x_3' \\ x_2'' = x_1' - 5x_3' \\ x_3'' = 2x_1' \end{cases}$

22. $\begin{cases} x_1' = x_1 + 2x_2 + 2x_3 \\ x_2' = -3x_2 + x_3 \\ x_3' = 2x_1 + 3x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 3x_1' + x_2' \\ x_2'' = x_1' - 2x_2' - x_3' \\ x_3'' = 3x_1' + 2x_3' \end{cases}$

23. $\begin{cases} x_1' = x_1 - 3x_2 + 4x_3 \\ x_2' = 2x_1 + x_2 - 5x_3 \\ x_3' = 3x_1 + 5x_2 + x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 4x_1' + 5x_2' - 3x_3' \\ x_2'' = x_1' - x_2' - x_3' \\ x_3'' = 7x_1' + 4x_3' \end{cases}$

24. $\begin{cases} x_1' = 4x_1 + 3x_2 + 5x_3 \\ x_2' = 6x_1 + 7x_2 + x_3 \\ x_3' = 9x_1 + x_2 + 8x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = -x_1' + 5x_2' - 3x_3' \\ x_2'' = x_1' - x_2' - x_3' \\ x_3'' = 7x_1' + 4x_3' \end{cases}$

25. $\begin{cases} x_1' = -x_1 - x_2 - x_3 \\ x_2' = -x_1 + 4x_2 + 7x_3 \\ x_3' = 8x_1 + x_2 - x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 9x_1' + 3x_2' + 5x_3' \\ x_2'' = 2x_1' + 3x_3' \\ x_3'' = x_2' - x_3' \end{cases}$

26. $\begin{cases} x_1' = 4x_1 + 3x_2 + 2x_3 \\ x_2' = -2x_1 + x_2 - x_3 \\ x_3' = 3x_1 + x_2 + x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = x_1' - 2x_2' - x_3' \\ x_2'' = 3x_1' + x_2' + 2x_3' \\ x_3'' = x_1' + 2x_2' + 2x_3' \end{cases}$

27. $\begin{cases} x_1' = 3x_1 + 5x_3 \\ x_2' = x_1 + x_2 + x_3 \\ x_3' = 3x_2 - 6x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 2x_1' - x_2' - 5x_3' \\ x_2'' = 7x_1' + x_2' + 4x_3' \\ x_3'' = 6x_1' + 4x_2' - 7x_3' \end{cases}$

28. $\begin{cases} x_1' = 2x_2 \\ x_2' = -2x_1 + 3x_2 + 2x_3 \\ x_3' = 4x_1 - x_2 + 5x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = -3x_1' + x_3' \\ x_2'' = 2x_2' + x_3' \\ x_3'' = -x_2' + 3x_3' \end{cases}$

29. $\begin{cases} x_1' = 7x_1 + 4x_3 \\ x_2' = 4x_2 - 9x_3 \\ x_3' = 3x_1 + x_2 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = x_2' - 6x_3' \\ x_2'' = 3x_1' + 7x_3' \\ x_3'' = x_1' + x_2' - x_3' \end{cases}$

30. $\begin{cases} x_1' = 7x_1 + 3x_2 + 4x_3 \\ x_2' = 4x_2 - 9x_3 \\ x_3' = 3x_1 + x_2 + x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = x_1' + x_2' - 6x_3' \\ x_2'' = 3x_2' + 7x_3' \\ x_3'' = x_1' + x_2' - x_3' \end{cases}$

31. $\begin{cases} x_1' = 4x_1 + 3x_2 + 2x_3 \\ x_2' = -2x_1 + x_2 - x_3 \\ x_3' = x_1 - x_2 + 3x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = x_1' - 2x_2' + x_3' \\ x_2'' = 2x_1' + x_2' - 5x_3' \\ x_3'' = x_1' + 2x_2' + 2x_3' \end{cases}$

32. $\begin{cases} x_1' = 3x_1 - x_2 + 5x_3 \\ x_2' = x_1 + 2x_2 + 4x_3 \\ x_3' = 3x_1 + 2x_2 - x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 4x_1' + 3x_2' + x_3' \\ x_2'' = 3x_1' + x_2' + 2x_3' \\ x_3'' = x_1' - 2x_2' + x_3' \end{cases}$

33. $\begin{cases} x_1' = 3x_1 + x_2 \\ x_2' = -x_1 + 2x_3 \\ x_3' = x_1 - x_2 + 2x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = -x_1' + 2x_2' - x_3' \\ x_2'' = x_1' - x_2' - x_3' \\ x_3'' = x_2' + 6x_3' \end{cases}$

34. $\begin{cases} x_1' = -x_1 + 2x_2 + 3x_3 \\ x_2' = 3x_1 - x_2 + x_3 \\ x_3' = 3x_1 - x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 5x_1' - x_2' \\ x_2'' = 3x_1' + x_2' - x_3' \\ x_3'' = x_1' - x_2' + 2x_3' \end{cases}$

35. $\begin{cases} x_1' = 4x_1 + 5x_2 - 3x_3 \\ x_2' = 3x_1 - x_2 + 5x_3 \\ x_3' = -x_1 + x_2 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = -x_2' + 3x_3' \\ x_2'' = x_1' - x_2' - 9x_3' \\ x_3'' = -4x_1' + 5x_3' \end{cases}$

36. $\begin{cases} x_1' = -x_1 + 4x_2 - x_3 \\ x_2' = x_1 - x_2 + 5x_3 \\ x_3' = 5x_1 - x_2 + 6x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 2x_2' - 5x_3' \\ x_2'' = x_1' + x_2' - x_3' \\ x_3'' = 5x_1' - x_2' + 8x_3' \end{cases}$

37. $\begin{cases} x_1' = 4x_1 - x_2 + 5x_3 \\ x_2' = -x_1 + 6x_2 - x_3 \\ x_3' = x_1 - x_2 - 9x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = x_1' - 5x_2' + x_3' \\ x_2'' = 5x_1' - x_3' + 7x_3' \\ x_3'' = x_1' + x_2' \end{cases}$

38. $\begin{cases} x_1' = 3x_1 + 9x_2 - x_3 \\ x_2' = 4x_1 - x_2 \\ x_3' = 7x_2 - x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 4x_1' - 5x_2' + x_3' \\ x_2'' = 6x_1' + x_2' \\ x_3'' = 5x_1' - x_2' + 7x_3' \end{cases}$

39. $\begin{cases} x_1' = 5x_1 + 3x_2 - x_3 \\ x_2' = 7x_1 - 6x_2 + x_3 \\ x_3' = 7x_1 - 6x_2 + x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 7x_1' + x_2' - x_3' \\ x_2'' = 6x_1' - x_2' + x_3' \\ x_3'' = 9x_1' + 5x_2' - x_3' \end{cases}$

40. $\begin{cases} x_1' = 9x_1 + x_2 + 6x_3 \\ x_2' = 8x_1 - x_2 + x_3 \\ x_3' = 9x_1 - 8x_2 + 7x_3 \end{cases}$ $\begin{cases} x_1'' = 4x_1' - 5x_2' \\ x_2'' = 6x_1' + x_2' - x_3' \\ x_3'' = 7x_1' - x_2' + x_3' \end{cases}$

41-60. Biror bazisda matritsa holida chiziqli almashtirishning xos son va xos vektorlarini toping.

41. $\begin{pmatrix} 2 & 19 & 30 \\ 0 & -5 & -12 \\ 0 & 2 & 5 \end{pmatrix}$ 42. $\begin{pmatrix} -3 & 2 & 0 \\ -2 & 1 & 0 \\ 15 & -7 & 4 \end{pmatrix}$

43. $\begin{pmatrix} -1 & -2 & 12 \\ 0 & 4 & 3 \\ 0 & 5 & 6 \end{pmatrix}$ 44. $\begin{pmatrix} 5 & -7 & 0 \\ -3 & 1 & 0 \\ 12 & 6 & -3 \end{pmatrix}$

45. $\begin{pmatrix} 1 & 8 & 23 \\ 0 & 5 & 7 \\ 0 & 3 & 1 \end{pmatrix}$ 46. $\begin{pmatrix} 4 & 0 & 5 \\ 7 & -2 & 9 \\ 3 & 0 & 6 \end{pmatrix}$

47. $\begin{pmatrix} 1 & -1 & 16 \\ 0 & 1 & -1 \\ 0 & 1 & 3 \end{pmatrix}$ 48. $\begin{pmatrix} -3 & 11 & 7 \\ 0 & 5 & -4 \\ 0 & 1 & 1 \end{pmatrix}$

49. $\begin{pmatrix} 5 & 9 & 7 \\ 0 & 3 & -2 \\ 0 & 2 & -1 \end{pmatrix}$ 50. $\begin{pmatrix} 5 & 0 & 21 \\ 21 & 2 & 16 \\ 1 & 0 & -1 \end{pmatrix}$

51. $\begin{pmatrix} 0 & 1 & 0 \\ -3 & 4 & 0 \\ -2 & 1 & 2 \end{pmatrix}$ 52. $\begin{pmatrix} 1 & -3 & 3 \\ -2 & -6 & 13 \\ -1 & -4 & 8 \end{pmatrix}$

53. $\begin{pmatrix} 4 & -5 & 5 \\ 1 & -4 & 9 \\ -4 & 0 & 5 \end{pmatrix}$ 54. $\begin{pmatrix} 5 & 6 & 3 \\ -1 & 0 & 1 \\ 1 & 2 & -1 \end{pmatrix}$

55. $\begin{pmatrix} 4 & -5 & 2 \\ 5 & -7 & 3 \\ 6 & -9 & 4 \end{pmatrix}$ 56. $\begin{pmatrix} 2 & -1 & 2 \\ 5 & -3 & 3 \\ -1 & 0 & -2 \end{pmatrix}$

